

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**QO'RILISH VAZIRLIGI**  
**M.ULUG'BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT**  
**ARXITEKTURA-QURILISH INSTITUTI**

5111000 – Kasb ta'lifi (5340400 – Muxandislik  
kommunikasiyalari qurilishi va montaji)  
bakalavr yo'naliishi talabalari uchun

**“Psixologiya” fanidan**

**USLUBIY KO'RSATMA**



**SAMARQAND- 2018 yil**

**SamDAQI ilmiy uslubiy  
kengashi majlisida ko'rib  
chiqilib, nashrga tavsija etilgan.**

**Bayonnomma №\_\_\_\_\_**

**«\_\_\_\_» «\_\_\_\_\_» 2018 y.**

**«Tasdiqlayman»**

**SamDAQI o'quv ishlari bo'yicha  
prorektori**

**A.Raximov**

**«\_\_\_\_» «\_\_\_\_\_» 2018 y.**

## **UDK 177-15**

Mazkur uslubiy ko'rsatma 5111000 – Kasb ta'limi (5340400 – Muxandislik kommunikasiyalari qurilishi va montaji) bakalavr yo'nalishi o'quv rejasiga kiritilgan “Psixologiya” fanining nazariy asoslarini qamrab olgan.

Ushbu uslubiy ko'rsatma 5111000 – Kasb ta'limi (5340400 – Muxandislik kommunikasiyalari qurilishi va montaji) bakalavr yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchilar:

**“Kasb ta'lim” kafedrasi katta o'qituvchisi R.X.Korshubayeva.**

Taqrizchilar:

**“Kasb ta'limi” kafedrasi dosenti, G'.X.Yaxshiboyev**

**“Kasb ta'limi” kafedrasi majlisida (201\_\_\_yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ №\_\_\_\_\_  
bayonnomasida), “Muxandislik kommunikasiyalar qurilishi” fakultetining  
ilmiy-uslubiy kengash yig'ilishida (201\_\_\_yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ №\_\_\_\_\_  
bayonnomasida) ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.**

*Chiqish belgilari: SamDAQI.Shakli A4. Buyurtma № \_\_\_\_ Adadi \_\_\_\_ Hajmi\_*

## Kirish

Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari xalqlari psixologiyasi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'zining ma'no-mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Darhaqiqat, mustaqil yurtimiz fuqarolari psixologiyasida ro'y berayotgan o'zgarishlarni, biz, ularning hayotga, uning qadriyatlariga, kasbi-kori, oilasi, o'z salomatligi va yaqinlariga bo'lgan munosabatlarida milliy mafkuraning asosiy mazmun-mohiyatlari namoyon bo'layotganligini guvohi bo'lamiz. Zero, mustaqillik psixologiyasini ongi va shuurida aks ettirgan hamyurtlarimiz, birinchi navbatda, yosh avlod kundalik muomalasi va turmush tarzida o'sha millat va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi solih amallarga intilaveradi va sog'lom g'oyalarsiz yashash olmaydi.

Yangi davr psixologiyasi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida shaxs faoliyatini ijtimoiy sohadan ajralgan holda o'rganish murakkab ekanligini alohida ravishda e'tirof etmoqda. Umumiy psixologiyani nazariy hamda ilmiy bilimlari, o'zining metod va uslublaridan samarali foydalanish lozimligini dolzarb muammo sifatida baholamoqda. Shaxs ijtimoiylashuvi hamda uning ustanovkalariga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni o'rganish orqali, har qanday faoliyat jarayonini to'g'ri rejalashtirish, uchraydigan kamchillikkarni korreksiyalash, psixologik profilaktika ishlarini olib borish imkoniyatini yaratish mumkin.

«Psixologiya» fanining maqsadi global inqiroz sharoitida ilk marotaba shaxs fenomeni psixologiya fani qamrab olgan asosiy muammolar va mavzularning markaziy figurasi hamda «Shaxs-jamiyat» tizimida o'zaro munosabatlarning ob`yekti va sub`yekti sifatida ekanligini e'tirof etish.

«Psixologiya» fanining vazifasi, talabalarga, shaxs taraqqiyoti va kamoli uchun muhim bo'lgan ijtimoiylashuv omillari, jumladan, undagi fikrlash jarayonlari, fikrning mustaqilligi, salomatligi, ijtimoiy muhitga moslashishi, mehnat faoliyati, professional yuksalishi, ma'naviyati, mafkurasi, oilaviy munosabatlari, turli ijtimoiy guruhlardagi maqomi, shaxslararo muloqoti va

konfliktli vaziyatlardagi ijtimoiy xulqi va boshqa psixologik hodisalar mohiyatini tushunishga ko'maklashishdan iborat.

*Yangi davr va psixologiya.* Psixologiya sohasida XX asrda erishilgan yutuqlar. Fanda yuzaga kelgan yangi yo'nalishlar va yangicha yondashuvlar. Sinergetik yondashuv. Akmeologik yondashuv.

*Psixologiya fanining dolzarbliji.* Globalizasiya sharoitida psixologiya o'rGANADIGAN muammolarning dolzarbliji. Insonni o'rGANISHNING ahamiyati.

*Barkamol avlod shakllanishida psixologiya fanining roli.*

*Psixologik bilimlarning paydo bo'lism davrlari* (e.av. 4-5-asrlar va 16-17-asrdagi taraqqiyoti). Suqrot (Sokrat), Platon, Arastu (Arestotel)larning falsafiy qarashlari. Psixologiya tarixidan. Antik dunyoda psixologiyaning paydo bo'lishi va dastlabki taraqqiyoti. XVI-XVII asrlar: empirik psixologiyani paydo bo'lishi va uning dastlabki taraqqiyoti.

*Psixologiyaning ilmiy fan sifatida shakllanishi* (19-20-asrlar). Vilgelm Vundt va uning Leybnis universitetidagi birinchi ekperimental psixologik laboratoriysi. Strukturalizm. Funksionalizm. E.Titchener va V.Jeymslarning tadqiqotlari. Bixevoirizm. E.Torndayk va D.Uotsonlar asos solgan yo'nalish. Psichoanaliz. Zigmund Freydning psixologiya fani rivojlanishida tutgan o'rni. «Id (U) – Ego (Men) – Superego (Menden oliv)» tushunchalari. «Libido» hamda «agressiv» energiyalar. K.Yung hamda individual psixologiyani targ'ib etgan A.Adleming ilmiy tadqiqotlari mohiyati.

*Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'rni.* Psixologiya va falsafa. Psixologiya va tarix. Psixologiya va sosiologiya. Psixologiya va pedagogika. Psixologiya va tabiiy fanlar. Psixologiya va kibernetika. Psixologiya va texnika fanlari. Psixologiya va iqtisodiyot.

*Nerv sistemasining tuzilishi.* Nerv hujayrasi, uning o'simtalari va ularni qoplovchi pardalar. Neyron. Qo'zg'aluvchanlik va o'tkazuvchanlik. Diffuz nerv sistemasi.

*Markaziy nerv sistemasi.* Bosh miya. Orqa miya. Ketingi miya. O'rta miya. Oraliq miya. Oldingi miya. Uzunchoq miya, Varoliy ko'prigi va miyacha. To'rt tepalik, qizil yadro va miyaning boshqa ba'zi bir uchastkalari. Vegetativ markazlar. Miya dastasi. Oldingi miyaning o'ng va chap yarim sharlari. Bosh miya yarim sharlari po'stining yuza qismlari. Bosh miya po'stining qismlari.

*Bosh miya va psixik funksiyalar.* I.P.Pavlovning yuksak nerv faoliyatiga doir tekshirishlari. Yuksak psixik funksiyalar.

## **PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI VA AHAMIYATI. PSIXOLOGIYANING ILMIY- TADQIQOT METODLARI**

Talabalarda psixologiya fanining yangi davrga xos yondashuvlari, boshqa fanlar bilan aloqasi, psixologik tarmoqlar klassifikatsiyasi haqida nazariy bolimlarni berish, psixologiyaning asosiy metodlaridan foydalanish va qo'llash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.

**Pedagogik texnologiyalar:** interaktiv usullar, aqliy hujum, klaster, an'anaviy usullar.

**Dars o'tish vositalari:** kompyuter texnologiyalari tadbiqi: slaydlar, animasiyalar, elektron darslik, elektron ma'ruba, elektron qo'llanmalar.

**Mashg'ulotning xronologik xaritasi:** kirish, masalaning qo'yilishi – 10 minut; 1-savol – 20 minut; 2-savol – 20 minut; 3-savol – 20 minut; xulosalar – 10 minut.

### **Darsning mazmuni:**

### **PSIXOLOGIYA HAQIDA TUSHUNCHА**

Inson mavjud ekan, u o'z hayotiy tajribaciga asoslanib u yoki bu holda idrok etish, olamni anglash, narsa va hodisalarni ajratish kabi xususiyatlarga ega ekanligi haqida o'ziga o'zi hisob beradi.

Biz kunda qushlarning sho'x navosini, musiqa asboblarning xonishini, inson nutqini, uchib o'tayotgan samolyot shovqinini eshitamiz, atrofimizni o'rab turgan narsa, daraxt, hayvonlar, mashinalarni ko'ramiz. Ularning rangi va hajmini ajrata olamiz. Mazkur jarayonlar insondagi aks ettirish xususiyati bilan chambarchas bog'liq.

Psixologiya fanining predmetini tahlil qilishda asosiy e'tiborini quyidagilarga qaratish lozim. Jumladan, psixologiya va pedagogika fanlari ham shaxs xususida fikr yuritadi, lekin pedagogika shaxsni ta'lim-tarbiya jarayonida kamol topishini tadqiq qilsa, psixologiya shaxsda kechadigan ruhiy jarayonlarni

o'rganadi. Shundan xulosa qilishimiz mumkinki psixologiya fanining predmetini – shaxsnинг psixikasini va psixologik xususiyatlari tashkil qiladi.

**Psixologiya** so'zining lug'aviy ma'nosi grekcha psyux – jon, ruh, logos – fan, ta'limot degan ma'noni anglatadi. **Psixologiya** fan sifatida psixik faktlar ularning qonuniyatlari va mexanizmlari haqidagi fandir. Psixologiya asosan psixikani keng doirada tadqiq qiladi.


**Psixik faktlarga** quyidagilar kiradi:

- **bilish faoliyatları** diqqat, nutq, faoliyat;
- **bilish jarayonları**: sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur;
- **shaxsnинг, hissiy, irodaviy sohasi**: - hissiyat, iroda;
- **shaxsnинг individual psixologik xususiyatlari**: temperament, xarakter, qobiliyat.

Professor V.M.Karimova fikricha psixika – inson ruhiyatining shunday holatiki u tashqi olamni (ichki ruhiy olamni) ongli tarzda aks ettirishimizni, ya'ni bilishimiz, anglashimizni ta'minlaydi.

Professor M.G.Davletshin fikricha psixika deganda, oliy darajadagi materiyaning (miyaning) xususiyati tushunilib, u obyektiv borliqni aks ettirilishida namoyon bo'ladi, subyekt faoliyatni ma'lum maqsad asosida yo'naltiradi hamda xulq-atvor negizida shakllanadi.

Psixika bu aks ettirishdir. Jonli va jonsiz tabiatda aks ettirishning o'ziga xos usullari mavjud. Aks ettirishni «Venna diagrammasi» interfaol usuli yordamida quyidagicha ifodalash mumkin.



Jonsiz materiya uchun aks ettirishning mexanik, kimyoviy va fizik turlari xosdir. Masalan, ko'zguning aks ettirishi, suvdagi ta'sir va boshqalar jonli materiya uchun aks ettirishning fiziologik, psixik aks ettirish turlari xos bo'lib ong va o'z-o'zini anglash uning eng yuqori bosqichidir. Psixik aks ettirish quyidagi xususiyatlarga ega:

- 1) obyektiv borliqni to'g'ri aks ettirish imkoniyatini beradi;
- 2) shaxsnинг faoliyati davomida mukammallikka erishib boradi;
- 3) doimo rivojlanib va shakllanib boradi.
- 4) Shaxsnинг individualligi orqali namoyon bo'ladi.

## **PSIXOLOGIYANING FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI**

Insonda jismoniy tanadan tashqari unda farqlanuvchi yana nimadir borligi haqidagi tasavvurlar qadimdanoq mavjud bo'lgan. Eng qadimgi davrlardayoq inson tush ko'rish hodisasi ayrim (olimlarning) odamlarning noyob qobiliyatları (masalan, ovdagi muvaffaqiyatlar) o'lim va boshqa hodisalarning sabablarini tushuntirishga intilgan. Ammo dastlabki qarashlar mifologik xarakterda edi. Ular fikrlash orqali emas, ko'r-ko'rona ishonch vositasida egallanardi. Ruh haqimdagı qarashlar ko'pincha nafas bilan bog'lanardi, ruh esa uchar mahluq sifatida tasavvur etadilar.

Psixologiya haqidagi fikrlar qadim zamonlardan beri mavjuddir. Ilk davrlarda psixologik xususiyatlarni jonning ishi deb tushuntirilgan. Jonning o'zi esa odam tanasidagi maxsus ikkilamchi jism deb qaralgan. Bunday tavvurlar «animizm» deb ataladi. Animizm so'zi –anima «jon» degan ma'noni anglatadi. Jon o'z mohiyatiga ko'ra olovsimon uchqundan iborat ekanligi Geraklit tomonidan yoki Demokrit tomonidan olovsimon atomdan iborat ekanligi ta'kidlangan.

Platonning «ideyalar tug'ma bo'ladi» degan g'oyalari psixologik fikr taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shdi. Platon ta'limoti ko'ra «ideyalar» abadiy va o'zgarmas mohiyatdir, ularning tabiiy olamdan tashqarida oliv olam mavjud bo'lib, ularni odam ko'zi bilan ko'ra olmaydi.

Platon psixologiyada «dualizm» oqimining asoschisi hisoblanadi. Dualizm so'zi ikki yoqlamalik yoki ikki mustaqil fikr degan ma'noni anglatadi. Dualizm ta'limoti moddiy va ruhiy olam tana va psixikaning bir-biriga bog'liq bo'limgan holda mavjud bo'lib azaldan qarama-qarshi narsalar deb tushuntiradi.

Platonning dualizmning shogirdlaridan Arastu (Aristotel eramizdan oldingi IV asr 384-322 yillar) tomonidan birmuncha muvaffaqiyatli bartaraf etildi. Aristotelning «jon haqida» asari o'sha davrdayoq psixologiya maxsus fan sifatida maydonga kela boshlaganidan dalolat beradi.

Ana shu tufayli psixologiya jon haqidagi fan sifatida maydonga kelgan. Hozirgi kunda psixologiya fani o'z mazmunini batomom o'zgartirgan.

Arastu kishilik tafakkuri tarixida birinchi bo'lib ruh va jonli tananing ajralmasligini isbotlab berdi. O'nga ko'ra jon qismlarga bo'linmaydi, lekin u faoliyatimizning oziqlanishi, his etishi va harakatga kelishi, aql-idrok kabi turlarga oid qobiliyatlarda namoyon bo'ladi. Birinchi qobiliyatlar o'simlik uchun,

ikkinchisi va uchinchisi hayvonlarga, to'rtinchisi esa insonlar uchun xosdir. O'simliklar, hayvonlar ruhi va aql idrok odam ruhi ta'limoti bilan Arastu oliv qobiliyatlar va ularning negizida paydo bo'lishni bildiradigan rivojlanish tamoyilini joriy etdi. Arastu organizmning tabiatdan olgan qobiliyatlarni faqat o'zining xususiy faolligi orqali ruyobga chiqarishga asoslangan holda xarakterning faoliyatda shakllanishi to'g'risidagi nazariyani ilgari surdi.

Geraklit, Demokrit, Aflatun, Arastularning ta'limotlari keyingi asrlarda psixologik g'oyalarni rivojlanishida tayanch nuqta bo'lib hisoblanadi. Asta-sekin ruh haqidagi tushuncha hayotning barcha o'rinishlariga emas, faqat hozir biz psixika deb atalgan darajaga nisbatan qo'llanib boshlandi. Psixika kategoriyasining zamirida ong haqidagi tushuncha maydonga keldi.

Psixika kategoriyasining negizida idrok va tafakkurdan tashqari ong tushunchasi yuzaga keldi, buning natijasida ixtiyoriy harakatlar va ularni nazorat qilish imkoniyati tuqildi. Masalan, rumlik shifokor Galen (eramizdan aldingi II asr) fiziologiya va tibbiyot yutuqlarini umumlashtirib, psixikaning fiziologik asosilari to'g'risidagi tasavvurlarni yanada boyitdi. Uning ilgari surgan g'oyalari «ong» tushunchasi talqiniga muayyan darajada yaqinlashadi.

XVII asr biologiya va psixologiya fanlari uchun muhim davr bo'lib hisoblanadi. Jumladan fransiya olimi Dekart (1596-1650) tomonidan xulq-atvorning reflektor (qayriixtiyoriy) tabiatga ega ekanligini kashf etilishi, yurakdagi mushaklarning ishlashi (faoliyati) qon aylanishning ichki mexanizmi bilan boshqarilayotganligi tushuntirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa refleks (lotincha reflexus aks ettirish) organizmning tashqi ta'siriga qonuniy ravishdagi javob reaksiysi sifatida talqil qilinib, asab-mushak faoliyatini, obyektiv tarzda bilish vositasiga aylanadi. Sezgi, assosiasiya, ehtiros yuzaga kelishini izohlashga imkon yaratildi.

Psixologiya fanining ilmiy asosga qurilishida ingliz olimi Gobbs (1588-1679) rujni mutlaqo rad etib mexanik harakatni yagona voqyelik deb tan olib, uning qonuniyatlari psixologiyaning holi qonuniyatlari ekanligini ta'kidladi. Uning negizida – epiorenomalizm (yunoncha eri - o'ta, rhainominon – qayritabiiy hodisa) vujudga keldi, ya'ni psixologiya tanadagi jarayonlarning soyasi singari ruy beradigan ruhiy hodisalar to'g'risidagi ta'limotga aylandi.

Niderlandiyalik olim Spinoza (1632-1677) ongni katta ko'lamga ega materiyadan sira qolishmaydigan voqyelik ya'ni yaqqolnarsa deb, tushuntirdi. U detirimizm (lotincha demmerminara - belgilayman) tamoyilining ya'ni tabiat,

jamiyat hodisalarining shu jumladan psixik hodisalarning obyektiv sabablari bilan belgilanigi haqidagi ta'limot targ'ibotchisi edi.

XVII asrdagi yirik nemis mutafakkiri Leybnis (19646-1716) ning ta'limotiga matematika jumladan, integral va differensial hisoblar kashf etilishi ta'sir etgan edi. Psixika hayot manzarasi arifmetik yi'bindi tariqasida emas balki, integral tarzda namoyon bo'ladi. Leybnis tasavvurlarning uzlusiz chegaralanishi g'oyasiga tayangan holda persepsiya (bevosita ongsiz idrok)ni appersepsiyalar diqqat va xotirani o'z ichiga olgan anglangan idroklardanfarqlangan edi. Leybnis psixologiyaga psixikaning faolligi tabiatini va uzlusiz rivojlanishi hamda psixikaning onglilik va ongsizlik ko'rinishlari o'rtasidagi murakkab nisbat haqidagi boyani olib kirdi.

XVII asrda emperizm va sensualizmni tajriba va his etiladigan bilimning «sof» aql-idrokdan afzalligi haqidagi ta'limotning ya'ni aqlda hech qanday tug'ma g'oyalar va tamoyillar bo'lishi mumkin emasligi haqidagi ta'limotning oldingi marraga ko'tarilishiga olib keldi. Bu ta'limotni ingliz faylasufi va pedagogi Jon Lokk (1632-1704) astoydil himoya qilib chiqqan edi. Uni emperik psixologiyaning asoschisi deb, hisoblash qabul qilingan. Barcha bilimlarning tajribadan kelib chiqishi haqidagi hamda psixologiya uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Chunki u ruhiy hayotning aniq faktlari oddiy hodisalardan murakkab hodisalarga o'tish yo'llari puxta o'rganilishini taqozo etadi. Lokning fikricha tajribaning ikkita manbai mavjud bo'lib: biri tashqi sezgi a'zolarining faoliyati (tashqi tajriba) va ikkinchi o'zining xususiy miyani idrok etuvchi aqlning ichki faoliyati (ichki tajriba) dir. Kishi hyech qanday g'oyalarga ega bo'limgan holda dunyoga keladi. Uning ruhi – «toza taxta» bo'lib keyinchalik unga tajriba yozuvlari bitiladi. Tajriba oddiy va murakkab g'oyalardan tarkib topadi. Bu g'oyalar yo seziglardan yo ichki idrok (refleksiya) lardan hosil bo'ladi. ikkinchi holatda ong real narsalarga emas, balki o'z xususiy mahsuliga yo'naltirilib o'zi bilan o'zi bo'lib qoladi. Loknning refleksiya ta'limoti kishi psixologik faktlarni interospektiv tarzda bilib oladi degan taxminga asoslangan edi. Bu bilan yana dualizim ilgari suriladi. Ong va tashqi olamni prinsipial jihatdan turlicha usullar yordamida bilish mumkinligi jihatidan ham ular bir-biriga qarama-qarshi qo'yilar edi.

Loknning tashqi va ichki tajriba to'brisidagi ta'limoti ikki xil xarakterga ega ekanligi ham materialistik ham idealistik ta'limotlarining taraqqiyotiga turki bo'lishiga sabab bo'ldi. Materialistlar Gartli (1705-1784) bosh bo'lgan fransuz A.N.Radishchev (1749-1802) boshchiligidagi rus materialistlari olamni bilishda tashqi tajribani asos qilib olib inson psixikasining ichki mazmuni asosida odamning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlari degan edilar.

XVIII asrga kelib nerv sistemasini tadqiq qilishda ulkan yutuqlarga erishildi. (Gamir, Proxazka) buning natijasida psixika miya funksiyasi ekanligi haqidagi ta'limot vujudga keldi. ingliz tadqiqotchisi Charlz, Bell va fransuz Fransua Majandi tomonidan yoyiluvchi va harakat nervlari o'rtasidagi tafovut ochib berildi. Uning negizida reflektor yoyi degan yangi tushuncha psixologiya fanida paydo bo'ldi. Bularning natijasida ixtiyoriy (ongli) va ixtiyorsiz (ongsiz) reflektor turlari kashf qilindi. Yuqoridagi ilmiy kashfiyotlar ta'sirida rus olimi I.M.Sechenovning (1892-1905) reflektor nazariyasi ruyobga chiqdi va ushbu nazariya psixologiya fanining fiziologik asoslari, mexanizmlari bosh miya reflekslarining o'ziga xos xususiyatlari tabiatini ochib berish imkoniyatiga ega bo'lgan.

Malumki har qanday fan o'z predmetiga ega bo'lib, psixologiyaning predmeti psixika bo'lib u obyektiv olamni psixik hodisalar assosida aks ettirib, yuzaga kelgan va shakllangan obraz subyekt faoliyatni hulq-atvorni maqsad sari yo'naltiradi.

Bundan tashqari har qanday fan qandaydir hodisani qonuniyatini bilish uchun malum bir metodlardan foydalanadi. I.P.Pavlov «Metodning qo'lida tadqiqot taqdiri yotadi» degan edi. Metodlar tizimi fanning umumiyligi metadalogiyasiga birlashadi.

Metodologiyani keng manoda oladigan bo'lsak, u malum tizimga ega bo'lgan va bilimlarni izlab topishga qaratilgan mantiqan ketma-ketlikka ega bo'lgan metodlardir. Ko'pchilik olimlar bu atamant ilmiy metod tushunchasiga mos tarzda tushunadilar va foydalanadilar, metodologiya faqat ilmiy tarzda qabul qilinishi takidlaydilar.

Metodologiya (yunoncha methodes - bilish, tadqiq qilish, izlanish o'li, logos - tushuncha, talumot) amaliyot faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishni tamoyillari va usullari tizimi hamda ushbu tizim haqidagi talumotdir. Metodlar – psixologiyani o'rganish usullari va yo'llari yihindisi, «Metod» bu bilish, anglash yo'li bo'lib, bu usul orqali fanning predmeti aniqlanadi. (S.L.Rubiniyleyn).

Metodlar tizimi yuqorida takidlanganidek fanning umumiyligi metadalogiyasi metod va metodikalari orasidagi bog'liqlik sxemasi berilgan.

Shuni alohida takidlash lozimki psixologik tatqiqotlarning tashkil etilishiga va o'tkazilishiga malum bir talablar qo'yiladi. Ular quyidagilardir:

1. Tadqiqotlarni rejalashtirish. Metod va metodikalarni tanlash va ularni sinab ko'rish;
2. Tadqiqotni o'tkazish joyi;
3. Tadqikotni texnik jixozlash;
4. Tadqiq qilinuvchilarni tanlash;

5. Tadqiqotchi shubxasiz tatqiqotning borishiga tasiretadi va tatqiqotning rejalarshirishdan to xulosa va tavsiyalarga qadar katta ahamyatga ega;
6. Ko'rsatma – u aniq va qisqa bo'lishi lozim;
7. Tadqiqot qoidasi bayonnomaga to'liq va maqsadga yo'nalgan bo'lishi kerak;
8. Tadqiqot natijalarini qayta ishslash.

Tadqiqot murakkab jarayon bo'lib, uning o'z bosqichlari va pog'analari mavjud.

Umumiy psixologiyani bu sohalari bilan bir qatorda qo'yish noto'g'ri chunki, umumiy psixologiya inson ruhiyatining umumiy qonuni turlarini metodalogik va nazariy tamoyillari asosida o'rganish bilan shug'ullanadi.

Har bir fan taraqqiyotining asosiy sharoitlaridan biri uning malum darajada mumkin qadar obuktiw aniq ishonchli uslublarga ega ekanligidir. Metod- uslubning manosi biror narsaga borish yo'li demakdir. Umuman psixalogiyada inson psixikasini tadqiq qilish metodlarning turli tasnifi mavjuddir. Tadqiqod metodlarini ilmiy jihatdan tahlil qilgan rus psixologi B.G.Ananyev mazkur metodlarni xususiyatlariga qarab klassifikasiya qilgan.

B.G.Ananyev psixikani o'rganish metodlarini turli guruhga ajratib, o'rgangan:

A) tashliliy- qiyoslash, longtyud, kompleks metodlari kiradi;

B) Empirik guruxga kuzatish, eksprement, suhbat, so'rovnama, test, faoliyat maxsulini o'rganish metodi, biografiya, sosimetriya;

V) natijalarini qayta tiklash yoki statistik;

G) natijalarini sharxlash, guruxiga sharhlash va donalash metodlari kiradi.

B.G.Ananyev tomonidan ajratilgan klassifikasiyaga ko'ra tadqiqod ishlarida foydalaniladigan emperik guruh metodlari hisoblanadi. Shunday bo'lsa ham boshqa guruh metodlariga ham qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Tadqiqot metodlarining birinchi tashkiliy guruhi o'z ichiga qiyoslash, longtyud (uzluksiz), kompleks (ko'pyoqlama) deb ataladigan turlarni qamrab oladi.

Qiyoslash metodidan umumiy psixologiya, ijtimoiy psixologiyalar katta yoki kichik guruxlarni hamda ularning har xil toifalarini o'zoro toqkoslash uchun, medisina psixologiyasi – sog'lom va bemor kishilarning psixik xususiyatlarini qiyoslash maqsadida, sport psixologiyasi sportchilarning holati, o'quvligini va ishchanligini o'zoro taqqoslash maqsadida qator fanlardan foydalanadilar.

Qiyoslash metodi turli yoshdagi odamlarning bilish jarayonlari shaxs xususiyatlari bilimlarni o'zlashtirish, aqliy qobiliyati salohiyati rivojlanish dinamikasi jinslarning tafovutlari va o'ziga xosligini o'rganishda qo'llaniladi. Psixologlardan L.S.Venotskiy, P.P.Blonskiy, A.A.Smirnov, B.G.Ananyev, D.B.Elkonin,

P.Gamterin va ularning shogirdlari olib borgan tadqiqodlar (chaqoloqlik, go'daklik, ilk bolalik, kichik maktab yoshi, o'smirlilik, o'spirinlik yosh davrlarini o'zoro solishtirish) shu metoddan foydalanib amalga oshirilgan.

Longtyud metodining boshqa metodlardan farqi bir yoki bir nechta sinaluvchilar uzoq muddat hatto o'n yillab tekshiriladilar. Longityudmetodidan nemis psixologi V.Shtern, fransuz R.Zazzo, rus psixologlari N.A.Menchinskaya, A.N.Gvozdev, N.S.Leytes, V.S.Muxina va boshqalar ko'p yillardan beri foydalanmoqdalar.

Mazkur metod orqali bir xil jinsli (Hasan-Husan, Fotima- Zuhra yoki aralash jinsli hasan – Zuhra, Fotima- Husan) egizaklar kuzatilgan. Longityud metodi yordamida subyektiv olimlarning o'ziga xosligini obyektiv shart –sharoitlari va ijtimoiy muhitning sinaluvchiga ta'sirini o'rganiladi. Chunonchi egizaklarning o'xshashligi va tafovuti, ta'sirlanishi, his tuyg'uni o'zgarishi kishilar o'rtasidagi individual farqlar (ishchanligi, temperamenti, oliv nerv faoliyati tizimi va hokazo) bo'yicha ma'lumotlar olish Longit'yud metodi orqali amalga oshadi.

Kompleks metodi yordamida o'rganilgan obyektdagi o'zgarishlar turli nuqtai nazardan tahlil qilinadi yoki ularga har xil yondashiladi. Masalan bolada oddiy bilimlarni o'zlashtirish xususiyati psixologik jihatdan tekshirilayotgan bo'lsa, kompleks yondashish ta'sirida ana shu o'zlashtirishning falsafiy, mantiqiy, fiziologik, ijtimoiy, biologik xususiyatlari yoritiladi. Aytaylik, keksayishning biologik omillarini o'rganish, uning psixologik, fiziologik, mantiqiy jihatlarini yoritishga xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqot metodlarining uchinchi guruhi natijalarni qayta tiklashga shug'ullangan bo'lib, ular statistik (miqdor) va psixologik (suhbat) tahlil turlariga bo'linadi. Ilmiy tadqiqot metodlarini turlicha sharhlash guruhi genetik va donalash metodlaridan iboratdir.

Genetik metod bilan tadqiqot davomida tugallangan ma'lumotlar yaxlit holda maqsadga muvofiq tarzda sharhlanadi. Bu metoddan foydalanishning asosiy maqsadi sinaluvchida vujudga kelayotgan ichki jami obrazlarning rivojlanishi ish va bilish jarayonlarining o'zgarishiga tajriba natijasiga suyanib ta'rif va tavsif berishdir. Shuningdek bunda mazkur fazilat va xususiyatlarning namoyon bo'lism davri, bosqichi hamda ba'zi mashhaqqatli daqiqalarga, paytlarga qo'shimcha sharhlar berish imkoniyati tuqiladi. Genetik metodiga asoslanib psixik o'zgarishlar bilan rivojlanish bosqichlarining bevosita bog'liqligini ildizi aniqlanadi.

Donalash metodi bilan tadqiqot obyektiga kirgan shaxs psixikasidagi barcha o'zgarishlar o'ziga xoslik o'zaro aloqa, o'zaro ta'sir va uy'tunlikning o'zaro bog'anishlari o'rgani-ladi. Jumladan, inson xulqini idrok qilish uchun sezgi, idrok, xotira, tafakkur jarayonlarining bir paytda, birgalikda qilinishi bunga yorqin misoldir. Bunda har bir bilish jarayonining usuli ifodalanadi yoki uning ahamiyati alohida ta'kidlanadi, ularning o'zaro bog'liqligi asoslab beriladi.

Empirik metodlar guruhi o'z navbatida ikkiga, ya'ni asosiy va yordamchi metodlarga bo'linadi. Asosiy metodlarga kuzatish va eksperiment metodlari kirma, yordamchi metodlariga suhbat, so'rovnama va test

**Tajriba yoki eksperiment metodi** – o’z navbatida tabiiy va laboratoriya metodlariga ajratiladi. Tabiiy tajriba metodlarining ilmiy asoslarini 1910 yilda ruspsixolog A.F.Lazurskiy kichik maktab yoshidagi bola shaxsini shakllantirishni o’rganish maqsadida qo’llagan. Tabiiy metoddan foydalanishda, ishlab chiqarish jamoalari a’zilarining, ilmiy muassasalar xodimlarining, o’qituvchilar, keksaygan kishilarning psixologik o’zgarishlari, o’zaro munosabatlari, ish qobiliyatları, mutaxassislikka yaroqliligi muammo-larini hal qilish nazarda tutiladi. Tabiiy sharoitda inson psixikasini o’rganishda sinaluvchilarning o’zlari bexabar bo’lishi ta’lim jarayonida berilayotgan bilimlar tadqiqot maqsadiga muvofiqlashtirilishi, katta yoshdagi odamlarga tarbiyaviy ta’sir o’tkazish, kundalik mehnat doirasida amalga oshirilishi, zavod va fabrikada esa moddiy mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim.

**Laboratoriya metodi** yordami bilan diqqatning sifatlari sezgi, idrok, xotira va tafakkurning xususiyatlari emosional hamda irodaviy va aqliy zo’riqish singari murakkab psixik holatlar tekshiriladi. Kupincha laboratoriya sharoitida kishilar va kutilmagan tasodifiy vaziyatlarning modellari yaratiladi. Asboblarning ko’rsatishi bo’yicha o’zgarishlar, rivojlanish dinamikasi, jismoniy va aqliy toliqish, emosional, irodaviy, asabiy zo’riqish, jiddiylik, tanglik qanday sodir bo’lganinin ifodalovchi ma’lumotlar olinadi.

Suhbat metodining yuqorida ta’kidlangan ijobjiy jihatlari bilan birga ayrim zaif tomonlari ham mavjud. Qaytarik so’zlar «galiz» iboralar nutqning tezligi, fikrning mavhumligi, zerikarliligi, muvaffaqiyatsizlikka sabab buladi. Shuningdek savol-javobning bir xil shaklda emasligi sinaluvchida o’ziga xos ishlash uslubi oshkoraliqning yetishmasligi, iymanish, uyalish atroflicha ma’lumotlar olishni qiyinlashtiradi va shu sababli boshqa metodlarga murojaat qilishga to’bri keladi.

### **Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi.**

Inson xotirasi, tafakkuri, qobiliyati va hayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida bu metod ish davri psixologiyasida keng qo’llaniladi. Bolalar chizgan rasmlar, yasagan o’yinchoklar, modellar, yozgan she’rlarini tahlil qilish orqali ularning mantiqiy xotirasi, tafakkuri, texnik, badiiy va adabiy qobiliyati, ijodiy xayoli yuzasidan materiallar qo’llash mumkin. Mazkur metoddan foydalanishda mahsulotni yaratgan shaxs bevosita ishtirok etmaydi. Obyekt bilan subyekt o’rtasida muloqot o’rnatish uchun shaxsning psixikasi to’g’risida sirtdan ma’lum xukm xulosa chiqariladi.

Ijodiy faoliyat mahsullarini tahlil qilish orqali bolalar, o’quvchilar, talabalar, konstruktorlar, olimlar, hunarmandlar, ishchilar psixik xususiyatlari to’g’risida ma’lumotlar tuplash mumkin. Lekin insondagi psixik o’zgarishlar kamol topish va ularning kechishini ifodalovchi materiallar yig’ish uchun bu metodning o’zi

yetmaydi. Shuning uchun inson psixikasini o'rganish maqsadida boshqa metodlardan ham foydalanish ma'qul.

### ***Biografiya (tarjimai hol) metodi.***

Inson psixikasini tadqiq qilish uchun uning hayot faoliyati, ijodiyoti to'g'risidagi og'zaki va yozma ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega. Bu borada kishilarning tarjimai holi xotiralari, esdaliklari, o'zgalar ijodiga bergan baholari taqrizlari alohida o'rinni egallaydi. Shu bilan birga o'zgalar tomonidan to'plangan tarjimai hol haqidagi materiallar, esdaliklar, xatlar, rasmlar, tavsiflar, baholar, magnitafon ovozlari, fotolavxalar, xujjatli filmlar o'rganilayotgan shaxsni to'liqroq tasavvur etishga xizmat qiladi.

Tarjimai hol ma'lumotlari inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatishda uning suhbat va tajriba metodlari bilan o'rganib bo'lmaydigan jihatlarini ochishga yordam beradi.

### ***So'rovnama metodi.***

Psixologiyada keng qo'llaniladigan metodlardan biridir. Uning yordamida turli yoshdag'i odamlarning psixologik xususiyatlari narsa va xodisalarga munosabatlari o'rganiladi. So'rovnama odatda 3 xil tuzilishda bo'ladi. Ularning birinchisi xayoli anglatilgan motivlarni aniqlashga mo'ljallangan savollardan tuziladi. Ikkinci xilida har bir savolning bir nechtadan tayyor javoblari beriladi. Uchinchisida sinaluvchiga yozilgan to'g'ri javoblarni ballar bilan baholash tavsiya etiladi. So'rovnomadan turli yoshdag'i odamlarning layoqatlarini muayyan sohaga qiziqishlari va qobiliyatlarini, o'ziga tengdoshlarga, katta va kichiklarga munosabatlarini aniqlashda foydalaniladi.

## **PSIXOLOGIYA: FAN TARIXI, FANLARARO ALOQA, TATBIQIY VA AMALIY SOHALAR**

Talabalarga psixologik bilimlarning paydo bo'lishi, ilmiy fan sifatida shakllanishi va fanlar tizimida tutgan o'rni haqida bilimlarni *berish* hamda ularda psixologiyaning tatbiqiylari va amaliy sohalaridan *foydalanish* bo'yicha amaliy *ko'nikmalarni* shakllantirish.

Falsafa, ijtimoiy-gumanitar fanlar, globallashuv, fanlar integrasiyasi, ong va tafakkur birligi, eksperiment, tabiiy, laboratoriya, dala, test, anketa, suhbat, kuzatish, modellashtirish, sosiometriya, faoliyat mahsulinini tahlil qilish.

**Dars o'tish vositalari:** kompyuter texnologiyalari tadbipi: slaydlar, animasiyalar, elektron darslik, elektron ma'ruza, elektron qo'llanmalar.

**Mashg'ulotning xronologik xaritasi:** kirish, masalaning qo'yilishi – 10 minut; 1-savol – 15 minut; 2-savol – 15 minut; 3-savol – 15 minut; 4-savol – 15 minut; xulosalar – 10 minut.

### **HOZIRGI ZAMON PSIXOLOGIYASINING TAMOYILLARI**

Psixologiya fanining rivojlanishi qator bosqichlarni o'z ichiga qamrab olib, bu davrlarda samarali tadqiqot ishlari olib borilgan. Aynan tadqiqot ishlarini samarali bo'lishi uchun fan doirasida tamoyillarni ishlab chiqish uchun zarurat sezila boshladi. Bu boradagi ishlar Amerika va boshqa chet el psixologiyasi yo'nalishlarida ham ishlab chiqiladi. XX asr boshlarida bixevoirizm, fridizm yo'nalishlari vujudga kelgan edi. Bixevoirizm psixologiyasi hayvonlarda o'tkazilgan kuzatishlar natijasiga asoslangan bo'lib, uning namoyondalari Torndayk va Uotson hisoblanadi. «Bixevoirizm» ingliz tilida hulq-atvor degan ma'noni bildiradi. Bu oqim psixika va ongi inkor qiladi, hulq bilan tashqi muhit o'rtasidagi munosabatlarni, qonuniyatlarni tekshirishni taklif qiladilar. Ularning fikricha psixologiyaning vazifasi stimulga (qo'zg'atuvchi) ya'ni sezgi a'zolariga ta'sir qilayotgan qo'zg'atuvchiga o'q otish, biror so'rashni ko'rsatish unga qanday javob reaksiyasi bo'lishini yoki bunday reaksiya qanday stimul tug'dirishini oldindan aytib bera olishdan iborat. Bixevoiristlarning formulasi «S -> R» dir.

Freydizm yo'nalishiga venalik psixiatr Z. Freyd asos solgan. Uning fikricha odam mohiyatiga ko'ra hayvonga o'xshaydi. Odamning xulq-atvori va xarakatlari ikkitu tamoyilga rohatlanish va reallik tamoyiliga bo'ysundirilgan bo'ladi. Bu oqim ham insonning ongiga ishonmaydi. Freyd o'zining psixologik nazariyasining odam haqidagi jamiyat va madaniyat haqidagi umumiy ta'lilotga aylantirib Tarb mamlakatlarida katta e'tibor qozondi. 1923-yilda Psixologlarning birinchi

syezdida K.N.Karnilov psixologiyani qayta qurish vazifasini ilgari surdi. Psixologiya fanini yuzaga kelishida judayam katta rol o'ynagan ilmiy kadrdar bo'lib yetishishlariga ta'sir ko'rsatdi. Masalan, B.T.Ananyev, P.Bolonskiy, S.L.Rubinshteyn, shuningdek keyinchalik O'zbekistonda ham yirik olimlar yetishib chiqdi. Ular jumlasiga M.G.Davletshin, E.B.Toziyev, M.Vohidov, V.V.Tokareva, G.Gayniddinova, V.M.Karimova, B.B.Shoumarov, R.Sunnatova va boshqalarni kiritish mumkin. Yuqorida nomlari tilga olingan olimlarni o'zlarining g'oyalari, milliy mafkuralari bilan yoshlarda tafakkur sifatlari «mustaqillik», «tanqidiylik» kabilarni shakllantirishga e'tibor bermoqdalar.

Hozirgi mustaqillik sharoitida psixologiyaga bo'lgan talab-ehtiyoj juda kuchayib ketdi. Yoshlarni ma'naviyatini boyitish uchun ularni dunyoqarashi, tafakkuri, irodasi umuman olganda ongini o'stirish uchun zarur. Buning uchun olimlar esperimental ishlarni kuchaytirishimiz, ta'lim jarayonini texnologiyalar asosida qayta qurishimiz zarur. hozirda Respublikamizdagi universitetlarida psixologiya bo'limlari, kafedra, laboratoriyalar ilmiy fikrlar markaziga aylantirildi. hozirgi zamon psixologlarining tamoyillari quyidagicha:

1. determinizm tamoyili;
2. ong va faoliyatni birligi tamoyili;
3. psixikaning faoliyatda rivojlanish tamoyili.

Determinizm tamoyiliga ko'ra psixika ishlash sharoiti bilan belgilanadi. Va sharoit o'zgarishi bilan o'zgaradi. Hayvonlar psixikasining taraqqiyoti tabiiy saralanish bilan odam psixikasi taraqqiyoti esa paydo bo'lish shakllari taraqqiyoti moddiy narsalarni ishlab chiqarish usullari ijtimoiy taraqqiyotning qonunlari bilan belgilanadi.

Ong va faoliyat birligi tamoyiliga ko'ra, ong va faoliyat bir-biriga qarama-qarshi ham, aynan bir narsa ham emas. Ular bir butunlikni tashkil etadi. Ong faoliyatni ichki rejasini, dasturini tashkil etadi. Bu tamoyil psixologlarga inson xulq atvori, xatti harakatlari va faoliyatlarini o'rghanish orqali xatti-harakatlardan ko'zlangan maqsadlarga muvaffaqiyatlarga erishishni ta'minlovchi ichki psixologik mexanizm, ya'ni psixikani obyektiv qonuniyatlarini ochishga imkon beradi.

Psixika va ongning faoliyatida taraqqiy etish tamoyiliga ko'ra, psixikaga taraqqiyot mahsuloti va faoliyat natijasi deb qaralsa, uni to'g'ri tushunish hamda tushuntirib berish mumkin. Bu tamoyil L.S.Vygotskiy, S.L.Rubinshteyn, V.M.Teplov kabi psixologlarni ishlarida aks etgan. L.S.Vygotskiy ta'lim psixikasini rivojlantirishni yo'naltiradi. P.P.Blokskiy esa tafakkurning kichik maktab yoshida o'yinlar bilan o'spirinlik yoshida o'qish bilan bog'liq tarzda rivojlanishini tahlil qildi. S.L.Rubinshteyn «Ong faoliyatda paydo bo'lib, faoliyatda shakllanadi» degan edi.

## **HOZIRGI ZAMON PSIXOLOGIYASINING TUZILISHI**

Hozirgi zamon psixologiya sohalari hozirgi kunga kelib 300 dan ortiqni tashkil qiladi. Bu sohalarni o'ziga xos obyektiga ega bo'lib, bir-birlaridan farq qiladilar.

Shu bois fan sohalarini o'rganish uchun qulay bo'lishi, tarmoqlarni ma'lum tizimga keltirish maqsadida ma'lum guruhlarga tasniflash joriy qilingan. Bu borada professor A.F.Petrovskiy psixologiya fan sohalarini quyidagi tasniflashni ilgari surdi.

- I. Aniq faoliyat turlarini o'rganuvchi psixologiya sohalari.
- II. Rivojlanishni yosh xususiyatlarini o'rganuvchi psixologiya sohalari.
- III. Shaxs va jamiyatga bo'lgan munosabatni o'rganuvchi psixologiya sohalari.

 **Ikkilamchi subyektiv sifatlar yo'q, bizning hamma sezgilarimiz obyektivdir**  
(M.Lomonosov).

***Id*** – psixik energiyaning o'ziga xos zahira joyi bo'lib, undagi jarayonlar inson tomonidan anglanmasa-da ongli hayotga ularning ta'siri katta.

***Ego*** – tashqi olam bilan bog'langan, uning ta'sirlariga beriluvchan shaxs xususiyatlarini o'zida mujassam etadi va doimo "Id"ni siqib chiqarishga harakat qiladi. Shaxs kamol topib, jamiyat normalarini o'zlashtirib borgani sari "Id"ga tobelikdan qutulib borsa-da oxirigacha buning uddasidan chiqa olmaydi.

***Superego*** – o'z navbatida "Ego"dagi mavjud ijtimoiy tasavvurlar va xulqiy odatlar ta'sirida rivojlanadi. Ya'ni, odam kishilik jamiyatida yashagan sari undagi e'tiqod, ideallar, individual "vijdoniga havola" xislatlardir. Insonda yuqoridagilarning qay biri kundalik xulq normalarida ustivor bo'lismiga qarab, uning jamiyatdagi mavqyei

## **Psixologiyaning boshqa fanlar bilan bog'liqligi**

## PSIXOLOGIYA VA IQTISODIYOT

**Iqtisodiyot** bilan psixologiyaning o'zaro aloqasi va hamkorligi ham yangilik bo'lib, ayniqsa, bozor munosabatlariga bosqichma - bosqich o'tish sharoitida iqtisodiy ong hamda iqtisodiy xulqning o'ziga xos namoyon bo'lish qonuniyatlarini o'rganishda ikkala fan teng xizmat qiladi. Yangi davr shaxsini tarbiyalash va uning jamiyatga moslashuvi masalasida psixologiya iqtisodiyot fanida qo'lga kiritgan yutuqlar, yangiliklar va iqtisodiy samaraga erishish omillarini hisobga olsa, iqtisodiyot o'z navbatida iqtisodiy islohotlarning obyekti hamda subyekti bo'l mish inson omiliidagi barcha psixologik o'zgarishlarni aniqlash, tahlil qilish va shu asnoda bashorat qilish vazifasini yechishi kerak.

### Psixologiya va falsafa

**Falsafa** bilan bo'lgan aloqa bu ikkala fanning inson va uning hayoti mohiyatini to'la anglash va uning rivojlanib borish tendensiyalarini belgilashdagi o'rni va ahamiyatidan kelib chiqadi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid bo'lgan umumiy qonuniyatlar va tamoyillarni psixologiya falsafaning bazasidan oladi va shu bilan birga o'zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatları sohasidagi yutuqlari bilan falsafani boy ma'lumotlarga ega bo'lishiga yordam beradi.

### Psixologiya va sosiologiya

**Sotsiologiya** fanining erishgan yutuqlaridan psixologiya fani ham foydalanadi, chunki bu fanlarning ko'lami kengayadi. Ayniqsa, ijtimoiy psixologiyaning sosiologiya bilan aloqasi uzviy bo'lib, ular jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va rivojlanishni ta'minlash ishiga xizmat qiladilar. "Ijtimoiy fikr" markazi tomonidan olib boriladigan ijtimoiy so'rovlari aholining kayfiyati, qiziqishi, xoxishi, ehtiyoji, niyatini ifodalash bilan birga, hukumat va davlat tomonidan qanday istiqbolli rejalar tuzish lozimligiga olib keladi

## PSIXOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

**Pedagogika** bilan psixologiyaning o'zaro hamkorligi va aloqasi yosh avlod tarbiyasini zamon talablarini ruhida amalga oshirishda ko'rindi. Shaxsni kamol toptirish, uning chuqur bilimlar sohibi bo'lib yetishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart - sharoitlar orasida pedagogikaning o'z uslub va qoidalari yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun ham psixologiya u bilan hamkorlikda yosh avlod ongingin ta'lif olish davrlaridagi rivojlanish tendensiylaridan tortib, toki yangicha o'qitish texnologiyalarini bola tomonidan o'zlashtirilishi va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlarga nechoglik ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish, shaxsga ta'lif va tarbiya berishning alohida emas, birgalikda qaralishida pedagogika va psixologiya fanlarining o'zaro uzviyligi muhimdir.

## PSIXOLOGIYA VA TABIIY FANLAR

**Tabiiy fanlar:** *biologiya, fiziologiya, ximiya, fizika* va b.k. psixik hodisalar va jarayonlarning tabiiy fiziologik mexanizmlarini tushunish va shu orqali ularning kechishi qonuniyatlarini obyektiv o'rganish uchun material beradi. Ayniksa, bosh miyaning hamda markaziy asab sistemasining psixik faoliyatlarini boshqarishda va ularni muvofiklashtirishdagi rolini e'tirof etgan xolda psixologiya fani tabiiy fanlar erishgan yutuqlar va ulardagi tadqiqot uslublaridan omilkorona foydalanadi. Shaxs qobiliyatlarini diagnostika qilish uning tug'ma layoqatlari hamda orttirilgan sifatlarini bir vaqtda bilishda psixofiziologiyaning qator usullaridan (miya assimetriyasi qonunlari, miya bioritmlarini yozib olish, neyrodinamik hodisalarini aniqlash, qon aylanish va tana haroratini o'lchash metodlari) o'z o'rnida foydalanadi


## PSIXOLOGIYA VA

**Kibernetika** fani sohasidagi erishilgan yutuqlar psixologiya uchun ham ahamiyatlari va zarur bo'lib, u inson shaxsining o'z-o'zini boshqarish va psixik jarayonlarni takomillashtirish borasida axborotlar texnologiyasi va kibernetika tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlar va tadqiqot metodlari, maxsus dasturdan o'z o'rniда foydalanadi. Masalan, oddiy muloqot jarayonini yanada takomillashtirish, har bir so'zning shaxslararo munosabatlardagi ta'sirchanligini oshirish maqsadida hamda ana shunday ijtimoiy faoliyat jarayonida shaxs tizimini takomillashtirishda turli kibernetik modellaridan o'rinni foydalanish zamonaviy psixologiyaning jamiyatdagi o'rni va rolini oshiradi, maxsus kompyuter dasturlarining keng qo'llanilishi inson miyasi va ruhiy olami sirlarini tez va aniq o'rganishni kafolatlaydi.


## PSIXOLOGIYA VA TEXNIKA FANLARI

**Texnika fanlari** bilan psixologiyaning o'zaro aloqasi va hamkorligi yaqqol sezilmoxda. Bir tomonidan murakkab texnikani boshqaruvchi inson ongi muammosini yechishda, ikkinchi tomonidan, psixik hayotning murakkab qirralarini ochishda maxsus texnik vositalardan foydalanish zarurati bu ikki yo'nalishning erishgan yutuqlarini birlashtirishni nazarda tutadi. Murakkab zamonaviy texnika sir - asrorlarini biladigan, uning jamiyat va fan ravnaqiga xizmatini ta'minlash qanchalik dolzARB bo'lsa, ana shu texnikaga har bir oddiy fukaro ongi, tafakkuri va qobiliyatlarini moslashtirish va «odam - mashina» dialogining eng samarali yo'llarini izlab topishi juda muhim. Texnika bilan bemalol «tillashadigan» malakali mutaxassislar tayyorlash borasida ham texnika fanlari pedagogika va psixologiya fanlari metodlaridan foydalana olsagina, muvaffaqiyatga erishadi.


**1-o'quv topshiriq (1-kichik guruh uchun).**







**2-o'quv topshiriq (2-kichik guruh uchun).**



**Psixologyaning boshqa fanlar bilan bog'liqligi**





**PSIXOLOGIYA  
VA  
KIBERNETIKA**

### **Kibernetika**


**PSIXOLOGIYA  
VA TEXNIKA  
FANLARI**

### **Texnika fanlari**


### **Uyga 1-topshiriq**

O`zingiz mustaqil ravishda xohlagan 5 ta shaxsn ni kuzating va uning xattiharakatlari va o`zini tutishiga qarab, ijtimoiy mavqeい va o`z holatidan qoniqqanlik darajasini aniqlang.

### **2-topshiriq**

Lyusherning ranglar testidan foydalanib, yon-atrofingizdagilarning hissiy holatlarini tahlil qiling.

- ➡ **ko'k rang (№ 1)** – sokinlik, tinchlik, bo'shashganlikning alomati;
- ➡ **yashil rang (№ 2)** – irodaviy zo'riqish;
- ➡ **qizil rang (№ 3)** – tetiklik, hayajon, ehtiros;
- ➡ **sariq rang (№ 4)** – ruhiy tanglik;
- ➡ **siyoh rang (№ 5)** – ruhiy va jinsiy yetuklik;
- ➡ **jigarrang (№ 6)** – soddadillik, arzimagan narsalarga paydo bo'lishi mumkin bo'lgan xursandchilik;
- ➡ **qora rang (№ 7)** – ruhiy ziddiyatlar, tushkunlik, g'azab;
- ➡ **kumush rang (№ 8)** – xotirjamlik, beg'amlik va befarqlik holatlarini ifodalaydi.

## **Psixikaning filogenetik taraqqiyoti**

### **ONG HAQIDA TUSHUNCHА**

Ong psixikaning eng yuksak darajasi bo'lib u faqat insongagina xosdir. Ong ijtimoiy tarixiy sharoitda odam mehnat faoliyatining tarkib topishida til yordamida boshqa kishilar bilan doimiy munosabatda bo'lish natijasidir. Bu ma'noda ong mutafakkirlar ta'kidlab o'tganlaridek ijtimoiy mahsulotdir.

Ongning birinchi xossasi – bu anglash demakdir. Inson ongi tevarak atrofdagi tashqi olamga doir bilimlar yig'indisidan iboratdir. Anglash tashqi olamdagи narsalarni tushunishi bo'lib, uning tarkibiga muhim bilish jarayonlari kiradi.

Ongning ikkinchi xossasiga binoan, ongda obyekt bilan subyekt o'rta sidagi aniq farq o'z ifodasini topadi, ya'ni odam «men» degan tushunchani «men emas» tushunchadan farqini ajratadi. Odam o'zini bilish qobiliyatiga ega bo'lган ya'ni psixik faoliyatning o'z-o'zini tekshira oladigan yagona mavjudotdir.

Ongning uchinchi xossasiga asosan ong yordami bilan odamning maqsadni ko'zlash faoliyati ta'minlanadi. Faoliyat maqsadlarini yaratish ongning vazifasiga kiradi. Bunday faoliyat motivlari yuzaga keladi va chamalab ko'rildi, irodaviy qarorlar qabul qilinadi, harakatlarni bajarish yo'llari hisobga olinadi.

Ongning to'rtinchi xossasi asosan turli munosabatlardan ongli ravishda turli his-tuyg'ular yuzaga keladi. Ong kishilar munosabatlarining yig'indisidir.

Ongning yuzaga kelishining asosiy sharti, vositasi tildir. Psixikaning eng quyi darajasi ongsizlikdir. Ongsizlik bu shunday psixik jarayonlar va hodisalar yig'indisiki, unda inson o'z xatti-harakatlariga javob bermaydi, anglamaydi. Bunga tush ko'rish, ba'zi patologik hodisalar, alaxlash, gallyusinasiya kabilar kiradi. Xulosa qilib aytganda psixologiya hayot faoliyatining o'ziga xos shakli bo'lib, psixik rivojlanishining qonuniyat va mexanizmlarini o'rganuvchi fandir. Psixologiya fanining asosiy vazifasi psixik hodisalarni o'rganish va ilmiy asoslashdir. Psixik hodisalar ma'lum qonuniyatlarga bo'ysunadi. psixologiya shunday qonuniyatlarni ochishga, ularni tarkib topishi va rivojlanishini ochishga qaratilgandir. Ushbu qonuniyatlarni bilish ularni boshqarish, tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri olib borishga yordam beradi.

### **PSIXIKA VA ONGNING TARAQQIYOTI**

Hamma tirik organizmlar o'simliklardan tortib, hayvonlargacha aks ettirishning biologik shakli seskanuvchanlik xususiyatiga egadir.

Seskanuvchanlik- tirik organizimning biologik ahamiyatiga ega bo'lgan ta'sirlariga javob qaytarish qobiliyatidir.

Biotik, ya'ni biologik ahamiyatga ega bo'lgan omillariga maxsus harakatlar bilan reaksiya qilish usullariga tropizm yoki taksislar deyiladi.

Fototropizm –bu tirik organizimning yoruglik ta'sirida harakatga kelishidir. Termotropizm-tirik organizmning issiqlik ta'siri ostida harakat qilishiga moyilligidir.Xemotropizm-tirik organizmning fizik- ximiyaviy muhitni tanlab olishga bo'lgan moyilligidir.4. Topotropizm –tirik organizmlarning mexanik qo'zg'atuvchilar ta'siri ostida harakat qilishiga moyiligidir. O'simliklarda aks ettirishning biologik shakli faqatgina tropizmlardan iborat bo'lib, bu harakatlar o'simliklarga o'z-o'zini boshqarishiga yordam beradi, ya'ni foydali holda manbara qarab intiladi yoki o'zini saqlashga doir boshqacha harakat qiladi.

Hayvon nerv tizimi va miyasi qanchalik yuksak darajada taraqqiy etgan bo'lsa uning psixikasi ham shunchalik yuqori bosqichga ko'tarilgan bo'ladi. Psixikaning rivojlanishi odamda eng yuqori darajada ongacha o'sib yetgan.

## HAYVONLARNING INSTINKTLARI

Instinktlar-hayvoning tabiiy ehtiyojlarini qondirish uchun qiladigan murakkab tug'ma harakatlaridir. Qushlar juda ustalik bilan in yasari ekanlar material tanlash va inni pishiq qilib qurish yo'lida xilma-xil harakatlarni bajaradilar. Masalan: Qaldirg'ochlarning in qurishi, Kalyushka deb ataluvchi baliqning erkagi suv tagida yerdan chuqurcha kovlab, uni mayda suv o'simliklari bilan to'sadi, inning yon devorini quradi va ustini berkitadi buni u yirikroq o'simliklardan o'z tanasidan yelimsimon modda chiqarib yasaydi.Shundan keyin erkak baliq o'z urg'ochi baliqni urug' quyish uchun haydab kirgizadi va to urug'dan baliqchalar ohib chiqunga qadar in atrofini qo'riqlab turadi.

Rus zoopsixologi V.A.Vagner (1849-1934) urg'ochi o'rgimchakning nomaql bo'lib qolgan instinktlari sharotida uning xatti-harakatlarini kuzatgan va tasvirlab bergen edi.

Chunonchi ko'pincha o'rgimchak pillasining ichidagini zararkunandalar yeb ketgan bo'ladi. Lekin urg'ochi o'rgimchak bo'shab qolgan pillani qo'riqlashda va u yoqdan-bu yoqqa ko'chirishda davom etadi. Shunday hollar ham bo'ladiki urg'ochi o'rgimchak pillani yasab va odatda tuxum qo'yish chog'ida bajariladigan harakatlarni bir necha marta takrorlab, amalda tuxum qo'ymasligi ham mumkin. Shunday bo'lsada u kelgusi bosqichga ya'ni bo'sh pillani qo'riqlashga va uni yoqdan –bu yoqqa ko'chirishga o'tadi. Asalarilar reaksiyaning maqsadga muvofiqligi ham nisbiydir. Agar mumkatakning orqa tomoni tilib qo'yilsa asalari yaroqsiz uyaga ma'lum miqdordagi shirani to'kib bo'lgach garchi

uning ikkinchi tomonidan shira oqib ketadigan bo'lsa ham mum bilan berkitib ketadi. Fransuz tadqiqotchi K.Fabri arining bir qolibdagi maqsadga muvofiq bo'limgan xatti-harakatini kuzatgan edi. Yer arisi uyasining oldiga chalajon chigirtkani keltirib, barcha arilar singari uyasini tekshirish uchun kirib ketganida tadqiqotchi uning o'ljasini yiroqqa surib ko'yadi. Ari uyasidan chiqib uni izlab shoshib yana uyasining oldiga qo'yadi va tekshirish uchun yana uyasiga kirib ketadi. Fabri arining uyasi oldidan chigirtkani qirq marta chetga surib qo'yadi va ari qirq martasida ham o'ljasini topib, uni olib kirish uchun uyasini tekshirgan. Bu misollar instiktning cheklanganligini ko'rsatadi. Instiktiv harakatlar muayyan shart-sharoitlarga qat'iy bog'lik bo'ladi. Instiktning amal qilish mexanizmi shundan iboratki, tashqi shart-sharoitlar reflektor munosabatni bildirishga undaydi, eng oxirida esa navbatdagi munosabat bildirish uchun qo'zqaydi va hokazo. Shu tarzda reflekslarning butun bir zanjirini harakatga keltiradi va bu bilan nasliy yo'l bilan mustahkamlangan dasturni amalga oshiradi. Instinktiv harakatlar standart shart-sharoitlar o'zgarishi bilanoq o'zining maqsadga muvofiqligini yo'qotadi. Shunday qilib xatti-harakatlarning instiktiv shakllari faqat doimiy sharoitlardagina maqsadga muvofikdir. Hayvonlarning instinktlari turli xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ovqatlanish instiki-hayvonlarning o'zi va bolasi uchun ovqat qidirib topish ovqat g'amlash harakatlari.

Saqlanish instiki-hayvon o'z hayotini va omonligini saqlash harakatlarida ifodalanib, u ikki ko'rinishda sodir bo'ladi.

Birinchisi dushmanga hujum qilish, ikkinchisi o'zini himoya qilishdir. Har bir hayvon dushmanidan himoya qilish uchun biror organidan shoxlari, tuyoqlari, tish-tirnoqlari, tikanlari kabi yoki zaharli-hidli suyuqlikdan foydalanadi. Masalan, Afrika kobrasi o'z zahrini 3,5 metr masofagacha ota oladi. Masalan. Amerkada terisining usti kora jun bilan qoplangan uncha katta bo'limgan bir yirtqich hayvon yashaydi. U amalda barcha turdag'i yirtqich hayvonlarning hujumidan saqlangandir. Hayvonlar uni orqasidagi uzun chizig'idan tanib oladi. Bu hayvon Skuns deb ataladi. Tabiat skunsga bir bezni ato etganki, u benihoya zaharli hid tarqatuvchi suyuqlik tarqatadi. Salgina xavf tuqilishi bilanoq skuns dushmaniga orqasini o'girib, dumini ko'taradi va havoga suyuqlik purkaydi. Natijada eng katta yirtqichlar ham bir necha soat davomida «hushidan ketib qoladi». Amerika qit'asidagi barcha hayvonlar skunsni chetlab o'tishga harakat qiladilar. Bu hayvoni yangi iqlimga moslashtirishga qaror qilindi. Yosh hayvonlarni oldiniga o'ralgan maydonda saqlashdi. Yirtqichlarni parvarish qilishda xizmatchilar qiyalmasliklari uchun hayvonlardagi mumk bezlari olib tashlandi. Erkinlikka qo'yib yuborilgan skunslar o'rmonlarda bemalol yurishardi. Qachonki, skunslarga hujum qila boshlanganida ular qochmasdan,

orgalarini o'girib turishaverdi va dushmanlarining yengilgina o'ljasiga aylanishadi. Shundan keyin skunslarning bezlari kesib tashlanmadi ularni boqishning boshqa usulari topildi.

Nasl qoldirish instinkti- bu ota-

onalik instinkti sifatida ko'rinish, nasl -avlod uchun g'amxo'rlik qilish uni ma'lum vaqtgacha ovqat bilan ta'min etish, xavf-xatardan saqlash o'z bolalarini parvarish qilish tug'ma mahoratiga ega bo'lib, o'z naslining kelajagi haqida katta g'amxo'rlik qiladi. Jumladan, o'rgimchakning ba'zi turlarida urg'ochilar o'z tuxumi uchun tolalardan pillalar yasaydi. Bu pillani urg'ochi o'rgimchak qo'riqlab va tez-tez ko'chirib yuradi, o'rgimchak bolalari paydo bo'lishi bilan urg'ochi o'rgimchak uyalarini yonidan siljimasdan qo'riqlab turadi. Nasli kattalashgani sari urg'ochi o'rgimchak ham ularga shuncha befarq bo'la boradi va so'ngra esa o'rgimchak bolalari mustaqil harakat qiladigan bo'lib, qolgandan keyin ularni tashlab ketadi.

Tuda bo'lib yashash instinkti –bu instinkt hayvonlarning turli usular bilan o'zaro aloqa qilishida xilma-xil shaklda birgalashib, to'dalashib, poda bo'lib, gala bo'lib yashashlarida zohir bo'ladi. Bu to'dalanish ba'zi hayvonlarda doimiy xarakterga ega bo'lsa (chunonchi chumolilar asalarilar), ba'zilari asosan yirtqich hayvonlar esa o'ziga o'xshash hayvonlar vaqtqi-vaqtqi bilan birgalashib yashaydi. Masalan qoplon eng kuchli va maymun uchun eng qo'rqinchli yirtqich. Qoplon maymunlarga yerda doim mushukdek chaqqon hujum qiladi Shimpanze maymun doim kuchli hayvon, lekin qoplondan ularga doim kun yo'q. Shimpanzelar qoplonni odatda yomon ko'rashdir, uni ko'rishlari bilanoq shimpanze maymunlari to'da bo'lib, vahshiyona bukchayib qo'llarini pastga tushirib, sakrab, baqirishib hayvonni hamma tamonidan qurshab oladilar. Ayrim hollarda shimpanzelar qo'llariga kaltak olib, qoplonni urib haydaydilar. Hashoratlar galasi, kushlar galasi, sut emizuvchilar podasi, yirtqichlar to'dasi, hayvonlarning doimiy to'da bo'lib yashash shaklidir. Ma'lumki, asalarilar uyasida bitta ona ari bir necha o'nlab erkak va bir necha yuzlab bepusht ishchi ari jinsiy organlari yetishmagan)lar bo'ladi. Ishchi arilarning xatti –harakatlari juda ham murakkabdir. Rivojlana borgan sari har bir ishchi asalari uyadagi vazifasini o'zgartira boradi. Oldiniga u asalari bolalarini (gumaklarini) boqadi, uyani tozalaydi, so'ngra uyani qo'riqlaydi, oziqa topib keladi, katakchalar yasaydi. Yerda yashaydigan arining instiktleri ham juda murakab harakatlar zanjiridan iboratdir. U o'ziga uya qazib olib, uchib ketishidan oldin har gal uni ozgina tuproq bilan qoplaydi. O'ljasini olib kelganidan keyin ari uni uyaga kiravershiga Qo'yib haligi tuproqni chetga burib, uyani tekshirib ko'radi, shundan keyingina uni uyaga olib kiradi. Instinkt xarakatlari tug'ma va nasldan-naslga o'tadigan ongsiz harakatlardir. Bular hayvonlarning hayot uchun kurashish va muhitga eng

muvaffaqiyatli uyg'unlashish jarayonida hosil qilingan holida irsiyat yo'li bilan mustahkamlanib qolgan ongsiz harakatlardir. Bular aql bilan o'ylab bajariladigan farosatli harakatlar emas. Masalan, yangi tuqilgan mushuk bolalarini cho'miltirib, mushuk oldiga olib kelganda, u o'z bolalaridek mehr bilan boqadi, emizadi himoya qiladi, ammo uni sichqon bolasi ekanligini anglatadi. O'rdak tuxumlari tovuqqa bostirilganda u o'rdak tuxumining farqiga bormasdan, shu tuxumdan chiqqan o'rdak bolalarini boqadi, ular suvga tushib suzganlarida suv labida u yoq, bu yoqqa yurib ularning tovuq jo'jalari emasligini anglamaydi. Demak instinktlar doimo bir shaklda ko'rindigan harakatlardir, ammo instinktlar sharoitga muvofiq o'zgarshi mumkin.

### Hayvonlarning ko'nikmalari:

Taraqqiyotning yuqori bosqichidagi hayvonlarda harakatning instiktiv shaklari bilan bir qatorda xatti-harakatining individual o'zgaruvchan shaklari – ko'nikma va intellektual harakatlari ham bordir. Ko'nikma- bu hayvonlarda shartli bog'lanishlar asosida yuz beruvchi va avtomatik ravishda sodir bo'lувchi harakatlardir, ya'ni biror faoliyatning takrorlanib turishi natijasida asta-sekin hosil qilingan xatti-harakatlarga aytiladi. Nerv tizimining rivojlanishi jihatidan hayvon qanchalik yuqori o'rinni egalasa, u o'zida shunchalik murakkab ko'nikmalarini hosil qila oladi. Instiktlarga qaraganda ko'nikma xatti-harakatlarning ancha o'zgaruvchan shakli hisoblanadi. Hayvonlarning ko'nikmalari ota-onalaridan "organish" yo'li bilan ham hosil bo'ladi. Masalan, bo'rilar bolalarini ovga o'rgatadilar, qari bo'ri qilgan harakatini yosh bo'ri takrorlaydi, bu taqlid qilish instinktiga asoslangan, xatti-harakatlar ko'nikmasidir. Uy hayvonlarini odam «o'rgatganda» ular ko'p ko'nikmalar hosil qiladi. Shuningdek sirkda uynovchi hayvonlarda xillma-xil juda murakab ko'nikmalar ijro etiladi. Ma'lumki hayvonda odam tomonidan ko'nikmalar hosil qilinishi o'rgatish dressirovka deyiladi. Mashhur dessirovkachi ma'lum narsaga o'rgatishda hayvonlar kerakli harakatni bajargan paytda ularga ovqat berib, rag'batlantirgan, shu yo'sinda murakkab ishlarni bajarishga o'rgatgan. Masalan, ayiqlarni velosopedda yoki samovarni stolga qo'yishga, fillarni uyin tushishga va shu kabi murakkab xilma-xil ko'nikmalarga o'rgatgan. Hosil bo'lgan ko'nikmalar hatto ayrim instiktlarni to'xtatib qo'ya oladi. Jumladan baliqlarda shartli bog'lanishlar ancha tez hosil bo'ladi. Shartli bog'lanishlarning hosil bo'lishi uchun yorug'lik rang narsaning shakli shuningdek tovush va ta'm belgilari signali bo'lib xizmat qilishi mumkin. Lekin bu bog'lanishlar tez o'zgarmaydigan bo'ladi. Chunonchi cho'rtanbaliqdada mayda baliqlarni ovlashga oid shartli refleks osongina hosil bo'ladi. Lekin bu refleksni susaytirish juda qiyin. Tadqiqotda mayda baliqlar cho'rtanbaliqdan shisha bilan ajratib qo'yilganda yirtqich yangidan vaqtinchalik bog'lanish hosil

qilmagunga qadar uzoq vaqt davomida shishaga urilib turdi, shisha olib qo'yilgandan so'ng esa yangi bog'lanish o'z navbatida uzoq vaqt saqlanib turadi. Shundan keyin cho'rtanbaliq yonida suzib yurgan mayda baliqlarga umuman ahamiyat bermay qo'yadi. Bu faktlardan ma'lumki sharoit o'zgarib ketganda shartli bog'lanishlar hayvonlarning xatti-harakatlarini bir oz o'zgartirishi mumkin ekan. Shunday qilib ko'nikmalar bir-biridan muhim jihatidan farq qilishi mumkin:

bir xolatda ko'nikmalar o'zlarining avtomatizmlariga ko'ra instinctlariga yaqinlashsalar, boshqa bir holatda intellektual harakatlarga yaqinlashadilar.

### Hayvonlarning intellektual harakatlari .

Aql (intellektual) bosqichi hayvonlarning dearli murakkab faoliyat bilan tavsiflanib, u aks ettirishning murakkab turidir.

«Hayvonlarning borliqni psixik aks etish usuli intellektual faoliyatiga o'tishida alohida narsalargina emas, balki ularning munosabatlarini aks ettirish ham vujudga keladi . Hayvonlar rivojlanishining bu bosqichda fanlar orasidagi bog'lanishlarning aks ettira oladilar. Bu yerda yangi xususiyatlar yuzaga keladi.

Nemis zoopsixologi V.Kyolerning tadqiqotlarida maymunlarga yetib bo'lmaydigan joyga xo'rak qo'yiladi. Xo'rakdan yaqinroq, lekin bevosita yetib bo'lmaydigan joyga uzun tayoq qo'yiladi. Bu tayoqqa yetishish uchun qafasda qisqa tayoqcha bilan xo'rakni olib bo'lmaydi. Maymun esa birinchi fazada qisqa tayoq bilan uzun tayoqni oladi.

A.N.Leontyevning fikricha aqliy hulq-atvorni boshqa xususiyati bu muvaffaqiyatsiz harakatlardan so'ng to'satdan javobni topishidir. Bu hodisa V.Kyoler tomonidan "insayt"-ravshanlashish deb atalgan. Aqliy hulq-atvorning boshqa ikki xususiyati bu topilgan muammoning yechimini tez eslab qolish va shu bilan shakllangan operasiyalarni bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga o'tkaza olishdir.

Hayvonot olamining yuksak bosqichidagi vakilari(quriqlikda yashovchilardan xususan odamsimon maymunlar dengiz hayvonlaridan delfinlar) instinct, ko'nikma egalashdan tashqari yana murakkab harakatlarni bajara oladi, hayvonlarning bunday xatti-harakatlarini intellektual harakatlar desa bo'ladi. Intellektual xatti-harakatlar hayvoning ancha yuksak shakldagi psixik faoliyati bilan bog'liq bo'lib, u tug'ma intellektlar va hayotda hosil qilingan ko'nikmalar hayvonning yashash sharoiti talablariga javob bera olmagan taqdirda yuzaga keladi. Yuksak taraqqiy qilgan hayvonlar ular uchun ma'lum darajada

mumkin yoki yangi bo'lgan bir narsani hal qila oladilar. Masalan, tajriba o'tkazilgan asbob ikkita bo'sh naychadan iborat edi. Naychadan bittasiga qarg'aning ko'z o'ngida inga bog'langan xo'rak bir parcha go'sht joylashtirildi. Qarg'a xo'rakning naycha ichiga kirib ketganini ko'radi. Qarga shu zahotiyog ikkinchi naychaning oxiriga sakrab boradi va xo'rakning paydo bo'lishini kutib turadi. Shuningdek maymunlarda o'tkazilgan tadqiqt ham bunga yaqqol misoldir. Qafasning shipiga banan osib qafas ichiga ikki -uchta yashik yoki bir ikkita qamishli tayoqcha qo'yadilar. Maymun qafas ichiga kirishi bilan mevani olmoqchi bo'ladi, ammo buyi yetmaydi. Maymun tevarak-atrofiga ko'z yogurtirib yerda yotgan qamishni ko'radi, va bu qamish bilan mevani qoqib tushirishga harakat qiladi lekin unda ham bo'yi yetmaganidan so'ng qamishlarni olib, bir necha vaqt ular bilan turlicha amal qilganda ular bir-biriga tutashib uzunlashadi, keyin maymun bananni qoqib tushiradi. Yoki yerda yotgan yashikni ustma-ust qurib uni mevani tagiga surib keltiradi va ustiga chiqib mevani olmoqchi bo'ladi, ammo bo'yi yetmaydi. Shunda maymun yerda yotgan boshqa yashiklarni ustma-ust kuyib, narvon qiladi va ularning ustiga chiqib mevani olib yeydi. Kishi ko'ziga maymunlar nechog'li aqli hayvon bo'lib tuyulmasin, ammo ularning tafakkuri nihoyatda tordir. Bu fikrni isbolash uchun shunday bir tajriba o'tkazilgan. Yashik qo'yilgan meva oldiga spirt lampasi yoqib, yonib turgan spirt lampasining tepasiga suvli-jumrakli bak va kurushka qo'yiladi. Mevani olish uchun maymun avval olovni o'chirish kerak bo'ladi. Bir odam olovni o'chirib, ovqat olish yo'lini maymunga ko'rsatadi, maymun bakdag'i suvdan kurushkaga quyib olov sepadi, va so'ng mevani olib yeydi. Keyinchalik suv to'ldirilgan bak boshqa stolga ko'chiriladi. Maymun bir stoldan, ikkinchisiga o'tish uchun uzun ko'priq yasab ko'priq orqali boshqasiga o'tgan va bakda kurushkaga suv to'ldirib yana orqasiga qaytgan nihoyat olovni o'chirib mevani olib yegan. Aynan maymun atrofida suv turib bundan foydalanmagani qiziqdir. Bu yerda maymuning umumlashtirish xususiyati yo'qligidan dalolat beradi, ya'ni har kanday suv olovni o'chira olishini maymun mutloqo tushunmaydi, u o'zi ko'rgan ishini ya'ni bakdan olingen suv bilan olovni uchirishnigina qila oladi, xolos.

Bulardan ma'lumki aqlni ishlatish bilan biror bir masalani hal qilishda maymun masalani yechishni barcha zarur shartlarini ko'ra olmaydi, ulardan faqat ayrimlarigina fahmlaydi xolos Maymunlarning intellektual harakatlari har qanday harakatlarni sinab ko'ravershi jarayonida aniq amaliy tafakkur tarzida sodir bo'ladi. Taqlidchanlik -maymunlar hulq-atvorining xarakterli xususiyatidir. Masala, maymun supurgi bilan polni supuradi va «lattani ho'lab siqadi», «polni artadi» «yuvaldi». Odatda, maymunlar harakatning natijasiga emas, balki harakatning o'ziga taqlid qiladilar. Maymun polni supurar ekan, ahlatini bir joydan ikkinchi joyiga ko'chirib yuraveradi-yu, lekin ahlatini poldan tozalab ola bilmaydi.

Tadqiqot jarayonida maymunlarning binokorlik «faoliyati» kemiruvchilar (kalamush) ning uya qurishi bilan taqqoslab ko'rishdi. Qattiqligi turlicha materiallar jumladan daraxt shoxlari va qog'oz mavjud bo'lgan holda shimpanze ham kalamushlar ham uyani bir xil tipda ya'ni uyaning assosiy qismini qattiq materialdan yasab ichiga ancha yumshoqroq material tushaydi. Agar shimpanze va kalamushga faqat yumshoq material berilsa, u holda ikkalasi ham uyani shu materialdan qurushga tushadi. Lekin ular tavsiya qilingan materialdan uyalarini yasab bo'lganlaridan keyin ularga ancha dag'alroq material berilsa, u holda hayvonlarning reaksiyalarida darhol sifat farq ko'rindi. Shimpanze ancha dag'al materialga ega bo'lganidan keyin shu zahotiyoy uyasini qayta qurishga kirishadi. Yumshoq materialdan qurilgan inshoatini bir chekkaga surib qo'yadi va ancha dag'al materialdan uyani asosini ko'ra boshlaydi. Shundan keyingina u yumshoq materialdan foydalanadi, uni uyasining ichki yuzalariga tushaydi, kalamushlar xuddi shunga o'xhash vaziyatda ko'rishni davom ettiradilar, dag'al materialni yumshoq material ustidan tushay beradilar.

Shunday qilib uya qurish maymunlarda garchi instinkтив harakatlar natijasida amalga oshirilgan bo'lsa, ham bu harakatlar tashqi shart-sharoitlar hisobiga olingan holda yuz beradi.

Intellektual xatti-harakatlar hayvonlarning ko'pincha yashirin imkoniyat sifatida qolib ketadi. Jumladan rus psixolog N.N.Ladgina –Kats (1889-1963) ning tajribalarida Paris degan shimpanze ichiga xo'rak solingan naychani olishi bilanoq naychaning ichiga kiritish uchun yaroqli bo'lgan ishlatalishga qulay kurolni tanlashga tushardi. Bunda Paris turli belgilarni narsalarning shakli, uzunligi, kengligi, qalinligini ajrata bilardi. Agar mos keladigan narsa topilmasa Paris yonida yotgan daraxt shoxlaridan yon shoxlarini yulib olar, enli taxtadan payraxalar ajratib chiqar, buklangan simlarni tug'irlar xullas maymunlar «qurol» yasar edi.

### **Bilimlarni tekshirish uchun test savollari:**

1.Tug'ma yo'l bilan, tayyor holda beriladigan, tirik mavjudotlarning tashqi olamga muvofiqlashuvini ta'minlaydigan, qat'iy ketma-ketlik asosida bog'langan harakatlar qanday harakatlar deyiladi?

\*Instinktlar.

Ixtiyoriy harakatlar.

Tropizmlar.

Ko'nikmalar.

## **2.Qo'yidagi hukmlardan qaysi biri psixikaning tabiatini materialistik nuqtai nazardan to'g'ri ta'riflaydi?**

\*Psixika – obe'ktiv olamning subyektiv holda miya orqali aks etishidir.

Psixika – faqat odamning o'zagina kuzata oladigan sirli ichki dunyosidir.

Psixika sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol kabi jarayonlardir.

Psixika o'zicha alohida bir olamdir. U tashqi sabablarga bog'liq emas.

## **3.Seskanuvchanlik(ta'sirlanuvchanlik) deganda nimani tushunasiz?**

\*dastlab paydo bo'lgan sodda hujayrali organizmlarning(tufelka, amyobalar) umumiy biologik aks ettirish xususiyatini.

Odamning chuqur emosional holatini.

Psixik aks ettirishni.

Harakatning instinktiv intellektual va individual shakllarini.

## **4.Odam ongingin paydo bo'lishiga sabab nima?**

\*Til va nutq orqali muloqot, mehnat prosessi.

Nerv sistemasining mukammallashishi.

Shartsiz reflekslarning shartli reflekslarga aylanishi.

Yashash sharoitining murakkablashishi.

## **5.Tug'ma yo'l bilan, tayyor holda beriladigan, tirik mavjudotlarning tashqi olamga muvofiqlashuvini ta'minlaydigan, qat'iy ketma-ketlik asosida bog'langan harakatlar qanday harakatlar deyiladi?**

\*instinktlar

tropizmlar

intellektual (akliy) xarakatlar

kunikmalar

## **6.Ong deb nimaga aytildi?**

\*faqat odamga xos bo'lgan psixikaning yuksak formasi

tug'ma harakatlarni

odam va hayvonlarga xos psixik prosess

predmet va hodisalarning miyamizda aks ettirilishi

## **7.Odam psixikasi va faoliyatining birligi nimada?**

\*psixika, ong faoliyatida namoyon bo'lib, faoliyatda tarkib topadi.

psixika va faoliyatni fikrlar, his-tuyg'u, xarakter va harakatlarni birlashtiradi

psixikasi faoliyatning bir qismi

faoliyat psixikaning bir qismi

## **PSIXIKANING NERV FIZIOLOGIK ASOSI**

### **Inson nerv sistemasining umumiy tuzilishi va vazifalari**

Har qanday tirik organizm uni qurshab turgan muhit bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Hayvonlarda va insonlarda bunday o'zaro munosabat nerv sistemasi yordamida amalga oshiriladi.

Inson nerv sistemasi uch bo'limdan: markaziy, periferik va vegetativ nerv sistemalaridan iborat bo'ladi.

Bosh miya va orqa miyani o'z ichiga olgan markaziy nerv sistemasi tashkilotchilik va boshqaruvchilik vazifasini o'taydi.

Periferik nerv sistemasi markaziy nerv sistema bilan organizmning turli qismlarini bog'laydi.

Periferik nerv sistemasi toalari bo'ylab markaziy nerv sistemasidan turli organlarga (to'g'ri aloqa), shuningdek, organlardan markaziy nerv sistemasiga (qayta aloqa) nerv signallari beriladi.

Vegetativ nerv sistemasi orqa miya bo'ylab va turli ichki organlarda, uning markazlari esa markaziy nerv sistemasining turli bo'limlarida- orqa, uzunchoq, orta va oraliq miyada joylashgan nerv tugunchalaridan iboratdir. Nerv sistemasining bu bo'limini, qon aylanish, ovqat hazm qilish, ichki sekresiya bezlari organlarining faoliyati tartibga solib turadi.

Inson nerv sistemasi organizmni o'rab turgan muhit bilan bog'laydi, ichki organlar o'zaro munosabatini boshqaradi va nerv sistemasining turli bo'limlararo aloqani amalga oshiradi.

Nerv sistemasining vazifasi tirik organizmni favqulodda murakkab o'z-o'zini boshqaruvchi sistema deb qarash imkonini beradi. I.P.Pavlov bu haqda shunday deb yozgan edi: "Inson haqiqatan ham sistema (qo'polroq qilib aytganda mashina), tabiatdagi barcha mavjudotlar kabi yagona va zaruriy tabiat qonunlariga bo'yusunadi. Lekin bizning hozirgi zamon ilmiy ufqimizda o'z-o'zini yuksak boshqaruvchi yagona sistemadir".

Nerv sistema neyron deb ataluvchi hujayralardan iborat. Neyron- 0,005-0,05 mm diametrli protoplazmatik yadroli tandan iborat bo'lib, dendritlar deb ataluvchi ko'plab qisqa o'simtalardan, neyritlar yoki aksonalar deb ataluvchi bir –ikkita uzun o'simtalarga ega. Neyritlar nerv sistemasining rivojiga muvofiq, bir-biridan ajratuvchi (izolyasiya qiluvchi) qobiqlar bilan qoplanadi, boshqacha qilib aytganda, miyelinizasiya hosil qilinadi. Bu qobiqlar nerv signallarinin faqat bitta nerv tolasi orqali erkin o'tish sharoitini yaratadi. Birlashtiruvchi qobiq bilan yig'ilgan bir to'da nerv tolalari nervlar deb ataladig.

Miyelin qobiqlardan xolis nerv tolalarining to'plami miya kulrang moddasini miyelinlashgan nerv tolalari esa miya oqish muddasini tashkil qiladi. Bosh miyaning kulrang muddasi asosan katta yarim shar bo'ylab joylashgan bo'lib, bosh miya qobig'i (po'sti) deb nomlanadi.Inson bosh miya qobig'ining qalinligi 3-4 mm.gacha bo'lib, bir necha qatlamlardan tashkil topgan behisob (12-15 milliard) hujayralardan iborat.

Nerv sistema yagona va bir butun tuzilma sifatida ishlab turadi.Lekin shunday bo'lsada, ma'lum funksiyalar muqarrar ravishda nerv sistemasining ma'lum oblastlari faoliyati bilan bog'liqdir.

### **Psixik faoliyatning reflektorlik tabiat.**

XVII asrda mashhur fransuz olimi Rene Dekart (1596-1650) psixikaning nerv –fiziologik tabiatini ifodalash uchun birinchi marta umumiy prinsiplarni topishga urinib ko'rdi. Dekart bu prinsipni refleks ("refleks" iborasi lotinchadan tarjima qilinganda "aks ettirish" ma'nosini anglatadi) mexanizmida ko'rdi. Bunda refleks mexanizmi organizmga ta'sir qiluvchi tashqi qo'zg'atuvchi bilan organizmning javob reaksiyasi o'rtasidagi aloqa tarzida tushuniladi. Dekart o'z asosiga ko'ra to'g'ri bo'lган reflektor prinsipini barcha psixik faoliyatlarga emas, balki faqat hayvonlar reaksiyasiga va odamning anglab yetmagan reaksiyalarigagina tadbiq etgan.

Reflektor prinsipni hamma psixik prosesslarga, ya'ni ongli va ongsiz prosesslarga qo'llashda rus fiziologlaridan I.M.Sehenov va I.P.Pavlovning

xizmati kattadir. I.M.Sechenov “psixik hayot hodisalarini tushuntirishda fiziologik bilimlardan foydalanish imkonini ko’rsatishni ” o’z oldiga vazifa qilib qo’yan edi. U o’zining “Bosh miya reflekslari” (1863) asarida psixik faoliyatning barcha xildagi ko’rinishlari asosida bosh miyaning reflektor faoliyati yotadi degan g’oyani ilgari surdi: “psixik hayotimizning barcha ongli va ongsiz harakatlari o’zining yuzaga kelish jihatidan reflekslardan iboratdir”.

Sechenov har qanday reflektor harakatda uchta zvenoni- refleksning bog’lanishi, o’rta va so’nggini ko’rgan edi. Reflektor harakatning boshlang’ich qismi- tashqi qo’zg’atuvchining ta’siri natijasida sezgi a’zosida hosil bo’lgan qo’zg’alish prosessidir. Miyada hosil bo’lgan qo’zg’alish va tormozlanish prosesslari o’rta zveno hamda organizmning javob reaksiyasini so’nggi zveno hisoblanadi.

I.P.Pavlov Sechenov g’oyalarini davom ettirib, bosh miya ishining reflektor prinsiplarini eksperimental asoslab berdi. U psixik faoliyatning negizini tashkil etuvchi asosiy fiziologik qonunlarni ochdi, fanning yangi tarmog’ini- oliv nerv faoliyatining fiziologiyasini yaratdi.

I.P.Pavlov refleks tushunchasiga differensial munosabatda bo’lib, shartli va shartsiz reflekslarni chegaraladi.

Shartsiz reflekslar tashqi muhit ta’siriga organizmning tug’ma ravishda, nasliy yo’l bilan beradigan javob reaksiyasidir. Ular nisbatan barqarorlik jihatidan farq qilib o’rganishni yoki hosil qilishda maxsus shart –sharoitni talab qilmaydilar.

Shartsiz refleksning nerv fiziologik mexanizmi reflektor yoyidan iborat bo’lib, u qo’zg’atuvchining ta’sirini qabul qilib oluvchi nerv apparatdan iboratdir. Bu nerv apparati –sezgi a’zosinig sezuvchi nervlvardan, sezuvchi nervlarda hosil bo’lgan qo’zg’alish harakat nervlariga o’tadigan markaziy nerv sistemasining bir qismidan va musullarga, ichki sekresiya bezlariga va organizmning boshqa a’zolariga javob reaksiyasini olib boruvchi harakat ya’ni markazdan qochuvchi nervlardan iboratdir.

### **Miya katta yarim shari po’stlog’ining analitik sintetik faoiyati.**

I.P.Pavlov ta’limotiga ko’ra in’ikos, shartli reflektor faoliyat davomida bosh miya po’stlog’ining asosiy funksiyalaridan biri “ma’lum murakkab olamni ayrim elementlarga taqsimlash” dan iborat. Bu ishni shartli refleks kabi oliv nerv faoliyatining muhim mexanizmi hisoblangan analizator mexanizmi bajaradi.

Analizator nerv asbobi bo'lib, borliqdagi murakkab hodisalani tarkibiy qismlarga ajratish, bevosita bizning sezgi organlarimizga ta'sir qilib, moddiy dunyodagi narsalar va hodisalarning ayrim xususiyatlari hamda sifatlarini aks ettirishdan iborat bo'lган psixik prosessni ya'ni sezish prosessini keltirib chiqaradi.

Sezishning xilma-xilligi analizatorlar xilma-xilligiga muvofiq bo'lib, ularning kelib chiqishiga sabab bo'ladi; ko'rish, eshitish, muskul-harakat, mazani aniqlash analizatorlari mavjud.

Har qanday analizator uch qismidan iborat:

1. Reseptor-analizatorning tashqi ta'sirotni qabul qib oluvchi qismi. Buni sezgi a'zosi deb yuritiladi. Bunda qo'zg'alish hosil bo'lган paytda sezgi a'zolarimizga ta'sir etayotgan qo'zg'atuvchijuda sodda analiz qilinadi (masalan, ko'rish analizatorining reseptori, ko'zning to'r pardasidagi nerv to'plamlari).

2. Nerv qo'zg'alishi bosh miya po'stlog'iga- markaziy nerv sistemasining oliy bo'limiga yo'naladigan o'tkazuvchi nerv yo'li (ko'rish analizatoriga shu yo'lidan ko'rish nervlari orqali o'tkaziladi).

3. Bosh miya po'stlog'inining tegishli zonasiga joylashgan markaziy zveno-analizator "o'zagi" (ko'rishning po'stloqdagi zonasi- miyaning orqa qismida joylashgan). Bunda sezgini keltirib chiqaradigan qo'zg'atuvchi nozik va oliy psixik jihatdan analiz qilinadi.

Analizatorlarning markaziy qismi-bosh miya po'stlog'ida analitiko-sintetik faoliyatini amalga oshiruvchi bir necha zonalarni farq qilish lozim. Bular, birinchidan, yuksak darajada maxsuslashgan, ya'ni aks ettiradigan joylar (boslang'ich zonalar deb ataluvchi) bo'lib, analizatorlarning "o'zagi" joylashgan sezgilar bilan bog'liqidir. Keyin analizatorlarning murakkabroq ishini ta'minlovchi ikkilamchi zonalar davom etadi. Bu zonalar predmetlarni idrok qilish bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Nihoyat, uchlamchi zona ("Yopiq zonalar", "tarqoq elementlar") bo'lib, ular yaxshi maxsuslashmagan bo'ladi. Bu zonalardan analizatorlar o'rtasidagi munosabat va tashqaridan organizmga kelayotgan qo'zg'atuvchilarning sintez qilinishi (birlashtirilishi) amalga oshiriladi.

Shunday qilib, bosh miya po'stlog'i barcha analizatorlar markaziy qismlarini o'zida birlashtirib, analiz va sintezlarning umumiy prinsiplarini amalga oshiradi.

Bosh miya po'stning analitik -sintetik faoliyati faqat sezish bilan bog'liq bo'lган psixik funksiyalarning, ya'ni idrok, xotira, xayol, tafakkur kabi psixik prosesslarning chiqib kelishini ham ta'minlaydi.

## **Oliy nerv faoliyatining asosiy prosesslari va ularning namoyon bo'lish qonuniniyatlari.**

Qo'zg'alish va tormozlanish oliy nerv faoliyatining asosiy prosesslari hisoblanadi.Qo'zg'alish- har qanday aktivlikning, shu jumladan, shartli reflektor aloqaning ham asosida yotuvchi nerv prosessidir. Qo'zg'alish nerv hujayralari faol holatini xarakterlab beradi.

Tormozlanish- qo'zg'alishga nisbatan qarama-qarshi axamiyatga ega bo'lib, reflektor aloqa o'rnatish funksiyasini sekinlashtiruvchi, to'xtatib qo'yuvchi yoki tormozlantirib qo'yuvchi nerv prosessidir.

Qo'zg'alish va tormozlanish organizm va uni o'rabi turgan muhit o'rtasidagi yagona muvozanat prosesining ikki tomonidir.

I.P.Pavlov shartli reflekslar metodidan foydalangan holda qo'zg'alish va tormozlanish prosesslarining namoyon bo'lishi asosiy qonunlarini aniqladi. Bular irradiasiya, konsentrasiya va o'zaro induksiya qonunlaridir.

Irradiasiya va konsentrasiya qo'zg'alish va tormozlanish prosesslarining sodir bo'lgan manbadan bosh miya po'stlog'ining boshqa joylariga tarqalishi va yana paydo bo'lgan manbaga qaytib to'planish prosesslarning dinamik holati bilan xarakterlanadi.

Agar hayvonlarga qo'zg'atuvchi sifatida turli past – balandliklardagi nota tovshlari (do, re, mi, fa, sol va hokazo ) bilan ta'sir qilinsa , biroq ulardan faqat bittasi ovqat bilan mustahkamlansa, dastavval hayvon faqat ovqat bilan mustahkamlangan tovushgagina emas, balki hamma tovushlarga ham so'lak ajrata beradi. Buning sababi shundaki, miya po'stining bir joyida hosil bo'lgan qo'zg'alish atrofidagi boshqa joylarga tarqaladi, ya'ni irradiasiyalanadi.

Irradiasiya va konsentrasiya darajasi ko'p jihatdan qo'zg'atuvchilar kuchiga bog'liqidir. Kuchsiz qo'zg'atuvchilar ta'sirida (ayniqsa davomli ta'sirda) odatda qo'zg'alish kuchli yoyiladi, o'rtacha kuchlanishdagi qo'zg'atuvchi qo'zg'alish kuchi ta'sirida yig'iqroq xarakterga ega bo'ladi, juda kuchli qo'zg'alish ta'sirida esa irradiasiya hosil bo'ladi. Sezgilarimiz, idrokimiz, tushunchamiz va tasavvurlarimizning xira, noaniqligi qo'zg'alish prosessining irradiasiyasi bilan aloqador bo'lishi mumkin. Qo'zg'alishlarni konsentrasiya qilish orqali esa bizning sezgilarimiz va idrokimiz odatda ravonligi va aniqligi bilan ajralib turadi.


Agar irradiasiya ayni markazda hosil bo'lgan (qo'zg'alish yoki tormozlanish) prosesslarini miya po'stidagi qo'shni uchastkalarga tarqalishidan

iborat bo'lsa, induksiya ayni markazda hosil bo'lgan prosessga nisbatan qo'shni uchastkalarda qarama qarshi prosessning yuzaga kelishidan iboratdir.


Agar miya po'stida tormozlanish manbai hosil bo'lsa, izchillik o'zaro ijobjiy induksya qonuniga ko'rva miya po'stining qo'shni uchastkalarida unga qarama-qarshi, ya'ni qo'zg'alish prosessi hosil bo'ladi. O'zaro induksiyaning bu hodisasi diqqatimizning boshqa xususiyatini, ya'ni diqqatimiz ko'chuvchanligining nerv –fiziologik tabiatini tushuntirib beradi.

Ketma-ketlik o'zaro induksiya natijasida bosh miya po'stlog'inining birdan-bir uchastkasida (yoki uchastkalarida) tormozlanish bilan qo'zg'alish (yoki qo'zg'alish bilan tormozlanish) almashinib turadi. Bu esa nerv xujayralarining ish qobiliyatini ta'minlaydi.

2- ilova



Nerv hujayrasi




Diffuz nerv sistemasi

3- ilova




Umurtqali **hayvonlar** bilan **odamda** nerv sistemasi murakkab tuzilgan bo'lib, uch qismga – markaziy, periferiya va vegetativ qismlarga bo'linadi.




Markaziy nerv sistemasi **bosh miya** bilan **orga miya** dan tarkib topgan.

#### 4- ilova





#### 5- ilova





## Bosh miya yarim sharlari po'stining yuza qismlari

## Kulrang modda bo'lagi


ilova



- ▶ **Odam miyasining og'irligi**  
o'rtacha – 1400 gr.
- ▶ **maymunda** – 500 gr.,
- ▶ **otda** – 650 gr.,
- ▶ **ho'kizda** – 500 gr.,
- ▶ **kitda** – 2800 gr.,
- ▶ **filda** – 4000 gr.




- ▶ **I.S. Turgenevning miyasi** – 2012 gr.;
- ▶ **I.P. Pavlovning miyasi** – 1653 gr.;
- ▶ **D.I. Mendeleevning miyasi** – 1571 gr.;
- ▶ **Anatol Fransning miyasi** – 1017 gr.



## 2-ilova

### Topshiriq


— · · · · · · · ·




1 raqamini doiraning shunday joyiga qo`yingki, u to`rtburchakda va uchburchakda bo`lmisin.

2 raqamini esa uchburchakning to`rtburchak joylashgan doiraga taalluqli joyida joylashtiring.

**Topshiriq:** Fikrlash uchun 5 daqiqa.



Quyidagi strelkalarni shunday harakatlantirish zarurki, natijada ular “X” ko`rinishini olsin. Sharti, harakatlantirilayotgan har bir strelka alohida turgan ikkitasini, “X” ko`rinishida turgan bittasining ustidan sakrab o`tadi. Natijada beshta “X” hosil bo`ladi.



## **Bilimlarni tekshirish uchun test savollari:**

1.Psixikaning moddiy asosi nima?

### **nerv sistemasi va bosh miya**

oliy nerv faoliyati va markaziy nerv sistemasi

nerv to'qimasi

nerv hujayralari, neyronlar, nerv tolalari

2.Kalta o'simtalari sertarmoq bo'lib, nima deb ataladi?

### **dendritlar**

neyron

mielin pardasi

nerv tolasi

3.Mielin pardasi deb nimaga aytiladi?

neyritning tashqi ikkinchi pardasi

### **neyritga yopishib turadigan birinchi yog'simon parda**

nerv hujayralari va mielinsiz tolalar to'plamiga

nerv qo'zg'alishini ajratib turuvchi izolyatsiyaga

4.Shvann pardasi deb nimaga aytiladi?

nerv hujayralari va mielinsiz tolalar to'plamiga

nerv qo'zg'alishini ajratib turuvchi izolyatsiyaga

neyritga yopishib turadigan birinchi yog'simon parda

### **neyritning tashqi ikkinchi pardasi**

---

5.Neyron nima?

agar nerv tolasi-ning biron joyiga tegilsa, issiq; so-vuq, elektr toki, ximiyaviy modda-lar va boshqa shu kabilar bilan ta'sir etilsa, yoki qo'z-g'atilsa, nerv tolasing qo'zg'atil-gan joyida maxsus fiziologik jara-yonlar ro'y beradi, bunga neyron deyiladi

oldingi miyaning o'ng va chap yarim sharlari, neyron deb yuritiladi

**nerv hujayrasi, uning o'simtalari va ularni qoplovchi pardalar birgalikda  
neyron deb ataladi**

hamma javoblar to'g'ri

6.Nerv hujayralari va mielinsiz tolalar to'plami nimani tashkil qiladi?

miyaning oq moddasini

nerv tolasini

**miyaning kul rang moddasini**

sinapslar degan maxsus mayda tolachalarini

7.Mielinli nerv tolalarining to'plami nimani tashkil qiladi?

miyaning kul rang moddasini

sinapslar degan maxsus mayda tolachalarini

nerv tolasini

**miyaning oq moddasini**

8.Nerv sistemasining qanday maxsus xossalari bor?

qo'zg'aluvchanlik va diffuz nerv sistemasi

---

## **qo'zg'aluvchanlik va o'tkazuvchanlik**

diffuz nerv sistemasi

o'tkazuvchanlik va diffuz nerv sistemasi

10.Umurtqali hayvonlar va odamda nerv sistemasi qanday qismlarga bo'linadi?

## **uch qismga – markaziy, periferiya va vegetativ**

ikki qismga – markaziy va vegetativ

ikki qismga – periferiya va vegetativ

ikki qismga – markaziy va periferiya

11.Markaziy nerv sistemasi nimadan tarkib topgan?

oldingi miya, orqa miya

oraliq miya, oldingi miya, orqa miya

ketingi miya, o'rta miya

## **bosh miya bilan orqa miya**

12.Qaysi miya umurtqa pog'onasining kanalida joylashgan?

oldingi miya

## **orqa miya**

ketingi miya

oraliq miya

13.Bosh miya qanday qismlarga bo'linadi?

## **ketingi miya, o'rta miya, oraliq miya, oldingi miya**

ketingi miya, o'rta miya, oraliq miya, oldingi miya, orqa miya

---

ketingi miya, o'rta miya, oldingi miya, orqa miya

ketingi miya, oraliq miya, oldingi miya, orqa miya

14.Ketingi miyaga nimalar kiradi?

uzunchoq miya va miyacha

uzunchoq miya va Varoliy ko'prigi

**uzunchoq miya, Varoliy ko'prigi va miyacha**

Varoliy ko'prigi va miyacha

15.Uzunchoq miya, Varoliy ko'prigi, o'rta miya va oraliq miya hammasi

birgalikda nimani tashkil etadi?

**miya stvoli**

oldingi miya

qadoq modda

kulrang modda

16.Oldingi miyaning o'ng va chap yarim sharlari nima asosida o'zaro birlashadi?

bosh miya po'sti

**qadoq modda**

kulrang modda

po'st ostidagi soha

---

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Karimova V. Mustaqil va tanqidiy tafakkur. Toshkent, 2007.
2. Petrovskiy A.V. Umumiy psixologiya. Toshkent. O'qituvchi, 2008.
3. Xalilov M. Biliш jarayonlari psixologiyasi. O'quv qo'llanma. 1-2-qismlar. Samarqand. SamDU. 1999 yil.
4. G'oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. Toshkent, 2001.
5. G'oziyev E. Psixologiya. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Toshkent. O'qituvchi, 2008.
7. Qodirov B.R., Qodirov I.B. "Kasbiy tashxis metodikalari to'plami" Toshkent, 2003 yil
8. G'oziyev E.G., Mamedov K.K. "Kasb psixologiyasi" Toshkent 2003 yil
9. Kondakov I.M. "Diagnostika professionalnyx ustavov podrostkov" 1997 g.
10. 11.Ye.A.Klimov «Kak vybrat professiyu», Moskva 1990 g.1
11. «Umumiy psixologiya» Ivanov. . 2008y. 23
- 12."Psixologiya kursi" M.V.Gamezo tahriri ostida

### **2.Elektron ta'lif resurslari:**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
3. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)



